

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“MOLIYAVIY MENEJMENT” FAKULTETI

“MENEJMENT VA MARKETING” KAFEDRASI

QAHHOROVA XONZODAXON MURODXO`JA QIZI

“PUL MABLAG‘LARI VA VALYUTA OPERATSIYALARI”

5230200 – “Menejment (tarmoqlar va sohalar)” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr
darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Moliyaviy menejment” fakulteti dekani
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Astanakulov Olim Tashtemirovich

«____»_____2016 yil

“Menejment va marketing” kafedrası
mudiri iqtisod fanlari nomzodi

Asatullayev Xurshid Sunatullaevich

«____»_____2016 yil

Ilmiy rahbar: _____ kat. o‘q. S.Xodjaeva

Ilmiy maslahatchi: _____ prof. E.Nabiyev

«____»_____2017 yil

TOSHKENT – 2017

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Pul mablagʻlari, yuqori likvidli aktiv sifatida, xoʻjalik yurituvchi subʻektlar ishlab chiqarish faoliyatining uzluksizligini taʼminlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Pul mablagʻlarining etarli boʻlmasligi ular faoliyatining uzluksizligini taʼminlash uchun zarur boʻlgan xom-ashyo va materiallarni sotib olish imkonini bermaydi. Natijada, iqtisodiyotda toʻlovsizlik muammosi yuzaga keladi.

Oʻzbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining zamonaviy bosqichida xoʻjalik yurituvchi subʻektlar oʻrtasidagi debitor-kreditor qarzdorlik muammosi iqtisodiyotning barqaror oʻsish surʼatlarini taʼminlashning dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev eʼtirof etganidek, “jami 18 trillion soʻmlik debitor qarzdorlikdan 14 trillion soʻmi yoki 60 foizi oxirgi 3 yil mobaynida choʻzilib kelayapti. Nima uchun ushbu muammo bilan Muddati oʻtgan qarzdorlikni qisqartirish komissiyasiga boshchilik qiladigan moliya vaziri va Markaziy bank raisi jiddiy shugʻullanmayapti”¹.

SHuningdek, xoʻjalik yurituvchi subʻektlarning xorijiy valyutaga boʻlgan talabini qondirish ular faoliyatini texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirishda muhim oʻrin tutadi.

Oʻz navbatida, xoʻjalik yurituvchi subʻektlarning pul mablagʻlari bilan taʼminlanganlik darajasini oshirish, ularning valyuta operatsiyalarini rivojlantirish pul mablagʻlari va valyuta operatsiyalarining buxgalteriya hisobini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bu esa, ushbu masalani alohida tadqiqot obʻekti sifatida oʻrganish zaruriyatini yuzaga keltiradi va mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot predmeti boʻlib, xoʻjalik yurituvchi subʻektlarning pul mablagʻlarini shakllantirish va valyuta operatsiyalarini amalga oshirish jarayonlarida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

¹ Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 30-б.

Tadqiqotning ob’ekti O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining sanoat tarmog‘ida ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan alohida olingan kichik biznes sub’ektlarining to‘lov va valyuta operatsiyalari amaliyotlaridir.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi bo‘lib, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalari mavzusini o‘rganishda bir nechta metodlarni qo‘llash metodikasini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqot vazifalari:

- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlari pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalari hisobining nazariy asoslarini o‘rganish;
- pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalarining me‘yoriy-huquqiy asoslarini tahlil qilish;
- pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalari hisobining amaldagi holatini tahlil qilish va mavjud tendensiyalarni aniqlash;
- “pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalari hisobi” mavzusini o‘rganishda bir nechta metodlarni qo‘llash metodikasini takomillashtirishga qaratilgan takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati. Mavzuning nazariy ahamiyati shundaki, mavzu doirasida shakllantirilgan xulosalar iqtisod yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlarida korporativ moliyaga oid fanlarni o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin.

Mavzuning amaliy ahamiyati mavzu doirasida ishlab chiqilgan takliflar va tavsiyalardan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatida, pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalari hisobini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanishning mumkinligi bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi. Mazkur bitiruv malakaviy ish tarkiban kirish, uch bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslab berilgan, predmeti, ob’ekti, maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Ishning birinchi bobida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalari hisobining nazariy-huquqiy asoslari tadqiq qilingan.

Ishning ikkinchi bobida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalari hisobining amaldagi holati tahlil qilingan va mavjud tendensiyalar aniqlangan.

Ishning uchinchi bobida “Pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalari hisobi” mavzusini o‘rganishda bir nechta metodlardan foydalanish metodikasining tavsifi keltirilgan va ushbu metodikani takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Ishning xulosa qismida bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida shakllantirilgan xulosalar va ishlab chiqilgan takliflarning qisqacha mazmuni o‘z ifodasini topgan.

1-BOB. PUL MABLAG‘LARI VA VALYUTA OPERATSIYALARI HISOBINING NAZARIY ASOSLARI VA AHAMIYATI

1.1. Pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalari hisobining iqtisodiy mohiyati

Pul mablag‘lari xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ishlab chiqarish faoliyatining uzluksizligini ta‘minlash, majburiyatlari yuzasidan to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirishning zaruriy sharti hisoblanadi. SHu sababli, pul mablag‘larining etarliligini ta‘minlash maqsadida pul oqimining barqarorligiga erishish xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Taniqli iqtisodchi olimlar S.Van Xorn va M.Vaxovichlarning fikriga ko‘ra, kompaniyalarning pul oqimi barqarorligini ta‘minlashda asosiy e‘tibor operatsion pul oqimining barqarorligiga qaratilishi kerak. Bunda operatsion pul oqimi investitsion xarajatlarni moliyalashtirishga, qarzlar va dividendlarni to‘lashga etishi lozim².

S.Van Xorn va M.Vaxovichlar alohida ta‘kidlashadiki, operatsion pul oqimining zaiflashuvi debitor qarzдорlik va tovar zaxiralari qoldig‘ining o‘shishi natijasi bo‘lishi mumkin. Ushbu xulosa O‘zbekiston amaliyoti uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. CHunki, respublikamizning qator korxonalarida debitor qarzдорlikning o‘shishi hisobiga joriy aktivlar hajmining oshishi va operatsion pul oqimining zaiflashuvi kuzatilmoqda.

Rossiyalik iqtisodchi olim V.Savchuk korxonalarning pul oqimi barqarorligini ta‘minlashda asosiy e‘tiborni CVPga (Cost-Volume-Profit – korxonaning zararsizlik nuqtasi) qaratishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi³.

Fikrimizcha, korxonalarning pul oqimini barqarorligini baholashda ular faoliyatining zararsizlik nuqtasini aniqlash hamda mazkur nuqtaning o‘zgarishi va

² Ван Хорн Дж., Вахович М. Основы финансового менеджмента. Пер с англ. – М.: ООО «И.Д.Вильямс», 2011. – С. 322-323.

³ Савчук В.П. Управление финансами предприятия. Монография. – М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2011. – С. 178-179.

foyda me'yori o'rtasidagi aloqadorlikni baholash muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, zararsizlik nuqtasi korxona umumiy pul oqimining eng quyi chegarasini belgilaydi; ikkinchidan, foyda korxonalarda pul oqimi kiriminig muhim elementlaridan biri hisoblanadi.

Fikrimizcha, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida moliya bozorlarining rivojlanib borishi bilan korxonalarning moliyaviy operatsiyalari hajmi oshadi. Bu esa, moliyaviy operatsiyalarning korxonalar umumiy pul oqimining barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyatini oshishiga olib keladi. Xususan, korxonalar hukumatning qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilish yo'li bilan joriy likvidlilik darajasini oshirishlari mumkin. Garchi, yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish korxonalar uchun pul oqimining chiqim elementi hisoblansa-da, ushbu investitsiyalar korxonaga daromad keltiradi va bu daromadlar soliqqa tortilmaydi. Buning ustiga, yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarni istalgan vaqtda sotish

YU.Brighem korxonaning joriy likvidlilikini baholashda pul mablag'larini joylashtirish samaradorligiga e'tiborni qaratishni tavsiya qiladi. Uning fikriga ko'ra, yuqori darajadagi joriy likvidlilik koeffitsienti kompaniyaning katta miqdordagi pul mablag'larini past daromadli aktivlar sifatida joylashtirilganligi oqibati bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda joriy likvidlilik koeffitsientining yuqori darajasini pul oqimining barqarorligini tavsiflovchi ko'rsatkich sifatida baholash maqsadga muvofiq emas. SHu sababli, YU.Brighemning fikriga ko'ra, joriy likvidlilik koeffitsientini baholashda uni o'rtacha tarmoq ko'rsatkichi bilan baholash holatni realroq baholash imkonini beradi⁴.

YU.Brighemning ushbu xulosasi juda o'rinli va amaliy ahamiyat kasb etadi. CHunki, taraqqiy etgan mamlakatlarda kompaniyalarning joriy likvidlilikini baholashda haqiqatda o'rtacha tarmoq ko'rsatkichlari bilan solishtirish keng qo'llaniladi. Ammo O'zbekiston sharoitida korxonalarning joriy likvidlilik koeffitsienti bo'yicha e'lon qilinadigan o'rtacha tarmoq ko'rsatkichi mavjud emas. SHu sababli, fikrimizcha, korxonalarning joriy likvidlilik koeffitsientini

⁴ Бригхэм Ю.Ф., Эрхардт. М. С. Финансовый менеджмент. Пер с англ. – СПб.: Питер, 2009. - С. 121-122.

baholashda asosiy e'tibor debitor qarzdorlik va tovar-moddiy zaxiralarning aylanish koeffitsientlarining o'zgarishiga qaratilishi lozim.

Taniqli rossiyalik iqtisodchi olim O.I.Lavrushinning fikriga ko'ra, joriy likvidlik koeffitsientining yuqori darajasi debitor qarzdorlik va tovar zaxiralari qoldig'ining o'sishi hisobiga ta'minlangan sharoitda aylanish koeffitsientlari orqali korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir⁵.

Fikrimizcha, O.Lavrushinning mazkur xulosasi o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari uchun, shu jumladan, mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, respublikamizning xo'jalik amaliyotida, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida debitor-kreditor qarzdorlik muammosi mavjud; ikkinchidan, ayrim xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tovar zaxiralarning omborxonalarda to'planib qolish holatlari mavjud.

M.Sokolovning fikriga ko'ra, korxonalarning pul oqimi barqarorligini ta'minlashda amortizatsiya ajratmalari muhim o'rin tutadi. Uning hisob-kitoblariga ko'ra, amortizatsiya ajratmalari korxonaning investitsion faoliyatida ishlatilganda ichki foyda me'yori korxona foydasiga qaraganda 2 marta yuqori, bank kreditiga nisbatan 4 marta yuqori bo'ladi⁶.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan J.Ismailovning taklifiga ko'ra, korxonalarning debitor qarzdorligi miqdorini kamaytirish maqsadida ular o'rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlikni inventarizatsiya qilish va uning yuzaga kelish sabablarini aniqlash, hukumat va Markaziy bank tomonidan mamlakatda monetizatsiya koeffitsienti darajasining o'rta muddatli davriy oraliqda 50 foizdan kam bo'lmagan darajasiga erishish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, «O'zkimyosanoat» DAK tizimiga kiruvchi korxonalar tomonidan fermer xo'jaliklariga etkazib berilgan mineral o'g'itlar bo'yicha debitor qarzdorlikni to'liq to'lanishiga erishish orqali «O'zbekneftgaz»ning «O'zkimyosanoat» korxonalariga bo'lgan debitor qarzdorligini undirishga erishish, yirik sanoat korxonalarning bank

⁵ Банковское дело. Учебник. Под. ред. Лаврушина О.И. – 7-ое изд. пер. и доп. – М.: КНОРУС, 2008. - С. 379.

⁶ Соколов М. Амортизационная политика и диверсификация экономики//Экономист. – Москва, 2011. - №11. – С. 21-24.

kreditlaridan foydalanish darajasini oshirish orqali ushbu korxonalarning debitor qarzdorligi miqdorini kamaytirish lozim⁷.

A.Karimov, F.Islomov va A.Avloqulovlar hammuallifligida yozilgan “Buxgalteriya hisobi” darsligida pul mablag‘lari hisobini yuritishni to‘g‘ri tashkil etish pul mablag‘lari, to‘lov, hisob-kitob va kredit muomalalarini o‘z vaqtida va to‘g‘ri amalga oshirish va rasmiylashtirishning zaruriy shartlaridan biri sifatida e’tirof etilgan⁸.

S.Mehmonov, D. Ubaydullaev hammuallifligida yozilgan “Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi” nomli darslikda byudjet tashkilotlarida naqd va naqdsiz pul mablag‘lari hisobining nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan bo‘lib, jumladan shunday deytilgan: “byudjet tashkilotlarining pul mablag‘lariga ularning hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari, kassadagi pul mablag‘lari, pul hujjatlari, pul jo‘natmalari, vaqtinchalik depozitga qo‘yilgan pul mablag‘lari kiradi”⁹.

YUqorida bildirilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, pul mablag‘lari hisobi korxonalar va tashkilotlarning xo‘jalik-moliyaviy faoliyatini tashkil qilishda muhim o‘rin tutadi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning valyuta operatsiyalari hisobini tashkil qilish va takomillashtirish bo‘yicha xulosalar shakllantirilgan, takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

A.To‘ychievning xulosasiga ko‘ra, “majburiyatlar summasining qadrsizlanishini buxgalteriyada aks ettirish g‘oyasining ma‘nosi pul olingan kundan boshlab, ya’ni “kechagi pul” summasi “bugungi pul” bilan hisoblanadigan majburiyatning o‘rishini ko‘rsatadi”¹⁰.

Bu erda muallif milliy valyuta qiymatining o‘zgarishi natijasida majburiyatlar qiymatini buxgalteriya hisobida aks ettirish g‘oyasini ilgari surgan.

⁷ Исмаилов Ж.Г. “Ўзбекнефтгаз” миллий холдинг компаниясининг молиявий барқарорлигини таъминлаш йўналишлари. И.ф.н. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – Б. 7.

⁸ Каримов А.А. ва бошқ. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 302-303.

⁹ Мехмонов С.Н., Убайдуллаев Д.Й. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби. – Тошкент: “Sano-standart”, 2013. – Б. 219.

¹⁰ Тўйчиев А.Ж. Мажбуриятлар бухгалтерия ҳисоби ва таҳлилининг назарий-методологик муаммолар. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – Б. 27.

Z.Qurbanovning xulosasiga ko'ra, "mamlakatimiz valyuta zaxirasini mustahkamlashda tovar va ishlar, xizmatlarni xorijga eksport qilish iqtisodiy ahamiyatidan kelib chiqib, eksport operatsiyalari soliq auditi metodologiyasini takomillashtirish zarur"¹¹.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning valyuta operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida ularning valyuta kurslarini o'zgarishi natijasida zarar ko'rishi dozarb masalalardan biri hisoblanadi. SHu sababli, ko'rilgan zararlarni buxgalteriya hisobida o'z vaqtida va to'g'ri aks ettirish ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtai-nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning valyuta operatsiyalari bo'yicha moliyaviy natijalar hisobini bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilinishiga olib keldi¹².

Xulosa qilib aytganda, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning pul mablag'lari va valyuta operatsiyalari hisobining nazariy asoslari yaratilgan bo'lib, ular iqtisodchi olimlarning turli xildagi qarashlari, xulosalaridan iboratdir.

1.2. Pul mablag'lari va valyuta operatsiyalari hisobining me'yoriy-huquqiy asoslari

Pul mablag'lari va valyuta operatsiyalari hisobining me'yoriy-huquqiy asoslaridan biri – bu O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida (yangi tahrir)"gi qonunidir¹³. Ushbu Qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 3 martda qabul qilingan va Senati tomonidan 2016 yil 31 martda ma'qullangan.

"Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunning 4-moddasiga muvofiq, buxgalteriya hisobi barcha xo'jalik operatsiyalarini yaxlit, uzluksiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo'li bilan buxgalteriya axborotini yig'ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek, uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iboratdir.

¹¹ Курбанов З.Н. Солиқ ҳисоби ва аудитининг назарий ва методологик асослари. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – Б. 26.

¹² Палий В.Ф. Международные стандарты финансовой отчетности. – М.: ИНФРА-М, 2003. – 454 с.; Стражев В.И. Оперативное управление предприятием. Проблемы учета и анализа. – Минск: Наука и техника, 1973. – 152 с.; Пардаев А. Х., Пардаев Б.Х. Бошқарув ҳисоби. – Тошкент: Фан, 2008. – 252 с.

¹³ Ўзбекистон Республикасининг қонуни. Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2016. – №15. – Б. 17-26.

Mazkur Qonunning 6-moddasiga muvofiq, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar, ularning O‘zbekiston Respublikasi hududida hamda undan tashqarida joylashgan sho‘ba korxonalari, vakolatxonalari, filiallari va boshqa tarkibiy bo‘linmalari buxgalteriya hisobi sub’ektlaridir.

SHuningdek, Qonunning ushbu moddasida aniq belgilanganki, yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek, chet el yuridik shaxslarining O‘zbekiston Respublikasi hududidagi vakolatxonalari, filiallari va boshqa tarkibiy bo‘linmalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisob yuritadi hamda hisobot taqdim etadi.

SHunisi ahamiyatliki, “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunning 10-moddasida buxgalteriya hisobi standartlari buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishga doir minimal talablarni belgilashi, bunda buxgalteriya hisobining milliy standartlari buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishga doir maxsus talablarni belgilashi va buxgalteriya hisobi sub’ektlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qo‘llashining mumkinligi e’tirof etilgan.

Mazkur Qonunning 13-moddasiga ko‘ra, pul, tovar-moddiy boyliklarni va boshqa boyliklarni qabul qilish hamda berish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan hujjatlar, kredit va hisob-kitob majburiyatlari, shuningdek, moliyaviy va boshqa hisobotlar buxgalteriya hisobi sub’ektining rahbari tomonidan yoki u belgilaydigan shaxslar tomonidan imzolanadi.

E’tirof etish joizki, “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunning 14-moddasida boshlang‘ich hisob hujjatlarining majburiy rekvizitlari aniq belgilangan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- * buxgalteriya hisobi sub’ektining nomi;
- * hujjatning nomi va raqami, u tuzilgan sana va joy;
- * xo‘jalik operatsiyasining nomi, mazmuni va o‘lchov birliklari ko‘rsatilgan miqdor o‘lchovi (natura va pulda ifodalangan holda);

* xo‘jalik operatsiyasini bajargan shaxslarning (shaxsning) identifikatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan familiyasi hamda ismi va otasi ismining bosh harflari yoxud boshqa rekvizitlari ko‘rsatilgan holda lavozimlari nomi va imzolari.

Boshlang‘ich hisob hujjatlarini tuzgan va imzolagan shaxslar ularning o‘z vaqtida, to‘g‘ri va ishonchli tuzilishi, shuningdek, buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun belgilangan muddatlarda topshirilishiga javobgardir.

Ta’kidlash joizki, “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunning 14-moddasida moliyaviy hisobot shakllari majmui aniq belgilab berilgan bo‘lib, u quyidagi shakllarni qamrab oladi:

- * buxgalteriya balansi;
- * moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot;
- * pul oqimlari haqidagi hisobot;
- * xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot;
- * izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalarining me‘yoriy-huquqiy asoslaridan yana biri bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015 yil 16 maydagi 12/17-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 22 iyulda 2687-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) “YUridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini amalga oshirish qoidalarini tasdiqlash haqida”gi yo‘riqnomasi hisoblanadi.

Mazkur Yo‘riqnomaga muvofiq:

- * barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, o‘zlarining pul mablag‘larini banklarda saqlashlari shart;
- * korxona va tashkilotlar o‘rtasidagi hisob-kitoblar naqd pulsiz tartibda amalga oshiriladi. Agar qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan bo‘lsa, ushbu hisob-kitoblar naqd pulda ham amalga oshirilishi mumkin;
- * tashkilotlar bankdan olgan naqd pullarini qaysi maqsad uchun olgan bo‘lsalar, uni faqat o‘sha maqsadda ishlatishlari shart;
- * tashkilotlar ish kuni oxirida o‘z kassalarida qolgan naqd pul mablag‘larini belgilangan limit doirasida saqlashlari mumkin;

* kassadagi naqd pul qoldig‘i limitini belgilash va tushum hisobidan xarajat qilish har yili yanvar oyida tashkilotlar va banklar o‘rtasidagi buyurtma hisob-kitobga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘rtacha kunlik naqd pul tushumi eng kam oylik ish haqi summasiga (2016 yil 1 oktyabrdan boshlab 149 775 so‘m) etmaydigan tashkilotlar uchun limit 2 yil muddatga belgilanadi.

“YUridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini amalga oshirish qoidalarini tasdiqlash haqida”gi yo‘riqnomada aniq belgilab qo‘yilganki, tashkilotlar har kuni o‘z kassasidagi naqd pul mablag‘larining belgilangan limit doirasidan ortiqcha qismini banklarning kunduzgi va kechki kassalariga yoki banklarga etkazib berish uchun inkassatorlarga topshirishlari shart.

Tashkilotlar o‘z kassasidagi naqd pul mablag‘larining belgilangan limitdan ortiqcha qismini mehnatga haq to‘lash, mukofotlar, sug‘urta to‘lovlari, nafaqalar, stipendiyalar va pensiyalarni to‘lash uchun, bankdan olingan kunni qo‘shib hisoblaganda 3 ish kunidan ortiq bo‘lmagan muddat mobaynida saqlash huquqiga ega.

SHuningdek, mazkur Yo‘riqnomada xizmat safari xarajatlari uchun berilgan mablag‘larning sarflanmay qolgan qismini xizmat safari muddati tugagandan so‘ng 3 ish kunidan kechiktirmasdan tashkilot kassasiga naqd pulda qaytarish, agar xizmat safari xarajatlari xodimning bank plastik kartasi hisobraqamiga o‘tkazib berilgan bo‘lsa, mablag‘larning sarflanmay qolgan qismi to‘lov terminali yoki xodimning arizasiga binoan 5 ish kuni ichida qaytarilishi aniq belgilab qo‘yilgan.

“YUridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini amalga oshirish qoidalarini tasdiqlash haqida”gi yo‘riqnomaga asosan, kassa operatsiyalarida birlamchi hujjat bo‘lib, kassa kirim orderi va kassa chiqim orderi hisoblanadi. Bunda, naqd pul qabul qilinganda buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish vazifalarini amalga oshiruvchi shaxs hamda kassir tomonidan imzolangan, kassir muhri (shtamp) bilan tasdiqlangan kassa kirim orderi yoki kassa apparatining izi tushirilgan chipta (slip) pul topshirgan shaxsga beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan Bank boshqaruvining 2013 yil 26 apreldagi 9/1-sonli qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida”gi nizomning tasdiqlanganligi pul mablag‘lari hisobining huquqiy asoslarini mustahkamlash yo‘lidagi jiddiy qadam bo‘ldi¹⁴.

SHuningdek, Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish nomli 19-sonli Buxgalteriya hisobi milliy andozasiga binoan kassa inventarizatsiyasini har oyda o‘tkazish belgilab qo‘yilgan.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning valyuta operatsiyalari hisobining me‘yoriy-huquqiy asoslaridan biri bo‘lib, shubhasiz, O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonuni (2003 yil 11 dekabrda qabul qilingan) hisoblanadi.

Mazkur Qonunga muvofiq:

- * chet el valyutasi, chet el valyutasidagi qimmatli qog‘ozlar, chet el valyutasidagi to‘lov hujjatlari va sof quyma oltin valyuta boyliklari hisoblanadi;

- * valyuta operatsiyalariga quyidagilar kiradi:

- valyuta boyliklariga bo‘lgan mulk huquqining va boshqa huquqlarning o‘zga shaxsga o‘tishi hamda valyuta boyliklarini to‘lov vositasi sifatida ishlatish bilan bog‘liq operatsiyalar;

- valyuta boyliklarini O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish va jo‘natish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish va jo‘natish;

- xalqaro pul jo‘natmalarini amalga oshirish;

- rezidentlar va norezidentlar o‘rtasida milliy valyutadagi operatsiyalar;

- * rezident yuridik shaxslarning chet el valyutasidagi mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi hududidagi vakolatli banklardagi valyuta hisobvaraqlarida saqlanadi va ular tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq mustaqil ravishda foydalaniladi;

¹⁴ Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Бошқарувининг 2013 йил 26 апрелдаги 9/1-сонли (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2013 йил 3 июнда 2465-рақам билан рўйхатдан ўтказилган) “Ўзбекистон Республикасида нақд пулсиз ҳисоб-китоблар тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги қарори//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2013. - №23. – 68-101-б.

* O‘zbekiston Respublikasi hududida barcha hisob-kitoblar va to‘lovlar milliy valyutada amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 29 iyundagi 245-sonli “Birjadan tashqari valyuta bozorini yanada rivojlantirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining qabul qilinishi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning valyuta operatsiyalarini rivojlantirishga kuchli turtki berdi. Mazkur Qarorga muvofiq, 2000 yil 1 iyuldan boshlab birjadan tashqari valyuta bozorida xorijiy valyutani sotish mexanizmi joriy etildi¹⁵.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalarining me‘yoriy-huquqiy asoslari yaratilgan bo‘lib, ular doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda.

1.3. Korxonaning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalari hisobining ahamiyati

Pul mablag‘lari hisobining to‘g‘ri tashkil etilishi korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, pul mablag‘larining buxgalteriya hisobi va hisoboti ulardan maqsadli foydalanilayotganligini baholash va nazorat qilish imkonini beradi; ikkinchidan, korxona faoliyatida yuzaga kelgan likvidlilik muammosining paydo bo‘lish sabablarini aniqlash imkoni yuzaga keladi; uchinchidan, korxona pul oqimining barqarorligiga ta’sir qilayotgan omillarni aniqlash imkonini beradi.

Pul mablag‘laridan maqsadli foydalanmaslik korxonalarning moliyaviy barqarorligiga nisbatan salbiy ta’sirni yuzaga keltiradi.

Korxonalarda likvidlilik muammosining yuzaga kelishining asosiy sabablari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- tovarlarni sotilmasdan omborxonalarda to‘planib qolishi;
- sotilgan tovarlar summasini o‘z vaqtida ololmaslik;

¹⁵ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 29 июндаги 245-сонли “Биржадан ташқари валюта бозорини янада ривожлантириш ва мустаҳкамлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. Ўзбекистон Республикасининг валютани тартибга солишга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари тўплами. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.- 66-69 -б.

- moliyaviy operatsiyalardan zarar ko‘rish.

G‘arb mamlakatlarida keng qo‘llanilayotgan pul oqimini baholash usulida korxonaning umumiy pul oqimi pul mablag‘lari kiritim elementlari bilan chiqim elementlari o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Bunda pul mablag‘larining kiritim elementlariga quyidagilar kiradi:

- olingan foyda;
- hisoblangan amortizatsiya;
- tovar zaxiralari, asosiy fondlarning sotilishi, debitor qarzdorlikning kamayishi;
- kreditor qarzdorlikning oshishi;
- boshqa passivlarning o‘shishi;
- aksiyadorlik kapitalining ko‘payishi;
- yangi ssudalar olish.

Pul mablag‘larining chiqim elementlariga quyidagilar kiradi:

- soliqlar to‘lash;
- foizlar to‘lash;
- dividendlar to‘lash;
- jarima va penyalari to‘lash;
- zaxiralarga, debitor qarzdorlik va asosiy fondlarga qo‘shimcha mablag‘lar sarflash;
- kreditor qarzdorlikni qisqartirish;
- boshqa passivlarni kamaytirish;
- aksiyadorlik kapitalining kamayishi;
- ssudalarning qoplanishi¹⁶.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda iqtisodiyotning pul mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik darajasi yuqori bo‘lib, korxonalar o‘rtasida debitor-kreditor qarzdorlik muammosi mavjud emas. SHu sababli, debitor-kreditor qarzdorlikni qisqartirish korxonaning umumiy pul oqimiga bevosita ta‘sir qiladi va korxonalar bunday imkoniyatga ega. Ammo respublikamizda iqtisodiyotning pul mablag‘lari

¹⁶ Банковское дело. Учебник. Под ред. проф. О.И. Лаврушина. – М.:КНОРУС, 2008. – С. 384.

bilan ta'minlanganlik darajasi nisbatan past bo'lganligi (01.01.2017 y. holatiga 24,5%) sababli korxonalarning debitor qarzdorlikni kamaytirish imkoniyati cheklangan.

Korxonalar joriy aktivlarining tarkibi va dinamikasi ularning pul oqimi barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Buning sababi shundaki, korxonalar joriy aktivlarining tarkibida muddati o'tgan debitor qarzdorlik salmog'ining oshishi, tovar zaxiralari va debitor qarzdorlikning aylanish tezligining pasayishi bevosita pul oqimining barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi¹⁷.

Korxonalarning pul oqimi barqarorligini baholashda pul mablag'lariga bo'lgan minimal talabni aniqlash muhim o'rin tutadi. Taraqqiy etgan mamlakatlar, xususan, Germaniya va Fransiya amaliyotida pul mablag'lariga bo'lgan minimal talabni aniqlashda quyidagi ko'rsatkich qo'llaniladi:

$$PM_{min} = PM_q + \frac{TA_r - TA_h}{PMAT}$$

Bu erda:

PM_{min} – pul mablag'lariga bo'lgan minimal talab;

PM_q – pul mablag'larining joriy davrning so'nggidagi qoldig'i;

TA_r – joriy xo'jalik operatsiyalari bo'yicha to'lov aylanmasining rejalashtirilgan hajmi;

TA_h – joriy xo'jalik operatsiyalari bo'yicha to'lov aylanmasining haqiqatdagi hajmi;

$PMAT$ – pul mablag'larining aylanish tezligi¹⁸.

Mazkur ko'rsatkichlar taraqqiy etgan mamlakatlarning xo'jalik amaliyotida kompaniyalarning pul mablag'lariga bo'lgan minimal talabini aniqlashda keng qo'llaniladi.

¹⁷ Корхоналарда умумий пул оқими деганда пул маблағлари кириш элементларининг жами суммаси ва чиқим элементлари жами суммаси ўртасидаги фарқ сифатида аниқланади. Халқаро амалиётда умумий пул оқимининг корхона жами қарз мажбуриятларининг 50 фоиздан паст бўлмаслиги нормал ҳолат ҳисобланади.

¹⁸ Бригхэм Ю., Эрхардт М. Финансовый менеджмент. Пер. с англ. – СПб.: Питер, 2009. – С. 233.

Korxonalarning valyuta operatsiyalari hisobini to'g'ri tashkil etish valyuta mablag'laridan foydalanish samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Korxonalarning valyuta operatsiyalariga quyidagilar kiradi:

- * mahsulotlarni eksport qilish natijasida valyuta tushumlarini olish;
- * import qilingan tovarlar bo'yicha to'lovni amalga oshirish;
- * valyutaviy qimmatliklarni (xorijiy valyutalarda yozilgan qimmatli qog'ozlar va to'lov vositalari) sotib olish va sotish operatsiyalari.

Korxonalar valyuta operatsiyalarining buxgalteriya hisobi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- * valyuta operatsiyalarining to'g'ri amalga oshirilayotganligini ko'rsatish;
- * korxonaning haqiqiy valyutaviy ahvolini ko'rsatish;
- * valyuta bitimlarining qonuniyligi va maqsadga muvofiqligi, valyuta boyliklarining borligi, ularning bus-butun saqlanishi va to'g'ri foydalanishi ustidan nazoratni ta'minlash¹⁹.

Korxonalarning moliyaviy barqarorligi bevosita uning valyutaviy holatining qanday ekanligiga bog'liq. Ushbu o'rinda korxonaning valyutaviy holati deganda quyidagilar nazarda tutilmoqda:

- * korxonaning xorijiy valyutadagi majburiyatlari yuzasidan to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq to'lay olish imkoniyati;
- * korxonaning xorijiy valyutadagi aktivlari va passivlarini qayta baholash natijasida foyda yoki zarar ko'rganligi;
- * xorijiy valyutada amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalar bo'yicha foyda yoki zararning mavjudligi;
- * korxona eksport tushumlarining barqarorligi yoki barqaror emasligi.

Korxonani xorijiy valyutadagi majburiyatlari yuzasidan to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq to'lay olmasligi uning xorijlik hamkorlar oldidagi reputatsiyasini pasayishiga olib keladi. Bu esa, uning valyuta operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatini cheklanib qolishiga sabab bo'lish mumkin.

¹⁹ Каримов А.А. ва бошқ. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 332.

O'zbekiston Respublikasida milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atining yuqori ekanligi importning qimmatlashishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa, korxonalarning valyutaviy ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Agar milliy valyuta-so'm muomalaga kiritilgan paytda amalga oshirilgan birinchi valyuta savdosida 1 AQSH dollarining narxi 7,00 so'm bo'lgan bo'lsa, 2016 yilning dekabr oyida o'tkazilgan so'nggi valyuta savdosida 1 AQSH dollarining bahosi 3231,48 so'm bo'ldi²⁰.

Korxona eksport tushumining kamayishi va nobarqaror bo'lishi uning moliyaviy barqarorligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

SHuningdek, korxonalar valyuta zaxiralarining diversifikatsiya darajasining past bo'lishi ularning moliyaviy barqarorligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

Korxonalar valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish deganda ular tomonidan bir vaqtning o'zida bir nechta valyutalarda zaxiralar tashkil qilinishi tushuniladi.

Valyuta zaxiralarining diversifikatsiya darajasini past bo'lishi korxonaning valyuta riskiga ta'sirchanlik darajasini oshiradi.

Ayniqsa, O'zbekiston iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish bosqichida korxonalarning valyutaviy ahvolini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, mamlakat iqtisodiyotiga katta miqdorda xorijiy investitsiyalar jalb etilmoqda. Bu esa, korxonalarni investitsiya loyihalarini o'z vatqida amalga oshirish imkonini beradigan darajada valyuta mablag'lariga ega bo'lishini taqozo etadi.

Xulosa o'rnida aytganda, pul mablag'lari va valyuta operatsiyalarini buxgalteriya hisobini to'g'ri va aniq tashkil qilish ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning zaruriy sharti hisoblanadi.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

²⁰ Пул-кредит сиёсати. www.cbu.uz.

Iqtisodchi olimlarning pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalarining mohiyati va buxgalteriya hisobi xususidagi nazariy qarashlarini o‘rganish natijalari ko‘rsatdiki:

- * kompaniyalarning pul oqimi barqarorligini ta‘minlashda asosiy e‘tibor operatsion pul oqimining barqarorligiga qaratilishi kerak. Bunda operatsion pul oqimi investitsion xarajatlarni moliyalashtirishga, qarzlar va dividendlarni to‘lashga etishi lozim;

- * korxonalarning pul oqimi barqarorligini ta‘minlashda asosiy e‘tiborni CVPga (Cost-Volume-Profit – korxonaning zararsizlik nuqtasi) qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi;

- * korxonaning joriy likvidliligini baholashda pul mablag‘larini joylashtirish samaradorligiga e‘tiborni qaratish lozim;

- * pul mablag‘lari hisobini yuritishni to‘g‘ri tashkil etish pul mablag‘lari, to‘lov, hisob-kitob va kredit muomalalarini o‘z vaqtida va to‘g‘ri amalga oshirish va rasmiylashtirishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi;

- * byudjet tashkilotlarining pul mablag‘lariga ularning hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari, kassadagi pul mablag‘lari, pul hujjatlari, pul jo‘natmalari, vaqtinchalik depozitga qo‘yilgan pul mablag‘lari kiradi;

- * majburiyatlar summasining qadrsizlanishini buxgalteriyada aks ettirish g‘oyasining ma‘nosi pul olingan kundan boshlab, ya‘ni “kechagi pul” summasi “bugungi pul” bilan hisoblanadigan majburiyatning o‘rishini ko‘rsatadi;

- * mamlakatimiz valyuta zaxirasini mustahkamlashda tovar va ishlar, xizmatlarni xorijga eksport qilish iqtisodiy ahamiyatidan kelib chiqib, eksport operatsiyalari soliq auditi metodologiyasini takomillashtirish zarur.

Respublikamizda pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalari hisobining me‘yoriy-huquqiy asoslari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- * O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida (yangi tahrir)”gi qonuni;

- * O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonuni;

* O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015 yil 16 maydagi 12/17-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 22 iyulda 2687-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) “Yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini amalga oshirish qoidalarini tasdiqlash haqida”gi yo‘riqnomasi;

* O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan Bank boshqaruvining 2013 yil 26 apreldagi 9/1-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida”gi nizom;

* inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish nomli 19-sonli Buxgalteriya hisobi milliy andozasi.

Pul mablag‘lari hisobining to‘g‘ri va aniq tashkil etilishi:

* pul mablag‘larining buxgalteriya hisobi va hisoboti ulardan maqsadli foydalanilayotganligini baholash va nazorat qilish imkonini beradi;

* korxona faoliyatida yuzaga kelgan likvidlilik muammosining paydo bo‘lish sabablarini aniqlash imkonini yuzaga keladi;

* korxona pul oqimining barqarorligiga ta’sir qilayotgan omillarni aniqlash imkonini beradi.

2-BOB. PUL MABLAG‘LARI VA VALYUTA OPERATSIYALARI HISOBINING AMALIYOTDA QO‘LLANILISHI

2.1. Pul mablag‘lari hisobining amaldagi holati

Pul mablag‘lari hisobi kassa operatsiyalari hisobi va naqdsiz pul mablag‘lari hisobini o‘z ichiga oladi.

Kassa operatsiyalarini olib borish uchun korxona shtatidan kassir ajratiladi. U o‘zi tuzib olgan barcha boyliklarning but saqlanishi uchun to‘liq moddiy javobgar shaxs hisoblanadi. Kassirni tayinlash bo‘yicha buyruq chiqqanidan so‘ng korxona rahbari uni operatsiyalarni olib borish tartibi bilan tanishtirishi, to‘liq yakka moddiy javobgarlik haqida u bilan shartnoma tuzishi shart. Kassir o‘z vazifalarini xech kimning zimmasiga yuklay olmaydi. Kassirni vaqtinchalik almashtirishga extiyoj tug‘ilganida korxona rahbarining Qarori asosida uning vazifalari boshqa xodim zimmasiga yuklanadi. O‘z navbatida, u bilan to‘liq moddiy javobgarlik to‘g‘risida shartnoma tuziladi. Kassir to‘satdan ishini

tashlab ketishga majbur bo'lganida (kasal bo'lganida va boshqa hollarda) uning tegishli boyliklarni korxona rahbari tayinlagan shaxslardan iborat komissiya boshqa kassirga o'tkazadi. Bunda qayta hisoblashish natijalari va boyliklarni berish haqida dalolatnoma tuziladi, unga komissiya a'zolari imzo chekadi.

Korxona rahbari pul mablag'larining kassada but saqlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishi lozim. Kassa uchun keragicha jihozlangan alohida xona, seyf o'rnatilishi zarur. Ish oxirida kassir kassa seyfini kalit bilan bekitishi va surg'uchli muhr bilan muhrlashi shart. Seyf kaliti va muhr kassirda saqlanadi, kalitning boshqa nusxalari kassir muhrlagan paketlar, qutichalarda korxona rahbarida turadi.

Korxona kassasiga nakd pullarni qabul qilish KO-1 shaklidagi kassa kirim orderi bilan amalga oshiriladi. U ikki qismdan iborat: kirim orderi (blankning chap qismi) va unga oid kvitansiya (o'ng qismi). Kassa kirim orderini buxgalteriya yozib beradi va bosh buxgalter yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi. Kirim orderini kassaga topshirishdan oldin, albatta, kirim va chiqim hujjatlarini qayd qilish jurnalida (KO-3 yoki KO-4 shakli) qayd qilinishi lozim. Jurnal ikki qismmdan iborat: chap qismida kassaga kelib tushgan pul mablag'lari, o'ng qismida sarflangan pul mablag'lari qayd qilinadi.

Kassa kirim orderini pul topshirayotgan shaxslar qo'liga berish ta'qiqlanadi. Kirim orderi ijro etish uchun bevosita kassaga topshiriladi, bu erda kassir orderning to'g'ri rasmiylashtirilganligini, bosh buxgalterning imzosi borligi va haqiqiylikini tekshiradi, pulni qabul qiladi, kirim orderi va kvitansiyaning imzolaydi. Pul topshirgan shaxsga kirim orderi kvitansiyasi beriladi. Kassa kirim orderi bo'yicha pullar faqat ushbu hujjat to'ldirilgan kunda qabul qilinadi. Bankdagi Hisob-kitob schyoti va boshqa schyotlardan kassaga naqd pul kelib tushganida ham kassa kirim orderi tuziladi va uning kvitansiyasi to'ldiriladi. Kvitansiya Hisob-kitob schyotidan pullarni hisobdan chiqarish uchun bank muassasasi ko'chirmasiga qo'shib qo'yiladi.

Naqd pullar kassadan kassa chiqim orderlari (KO-2 shakli) yoki kassa chiqim orderlarining o‘rnini bosadigan, maxsus shtamp bilan bosilgan boshqa hujjatlar (to‘lov qaydnomalari, pul berish uchun ariza, hisobvaraqlar va hokazo) asosida beriladi. Pul berishga doir barcha hujjatlarni korxona rahbari va bosh buxgalter yoki ular vakolat bergan shaxslar imzolashi kerak. Agar kassa chiqim orderiga ilova qilingan hujjatlarda korxona rahbarining ruxsat beruvchi qaydi bo‘lsa, orderda uning imzosi bo‘lishi shart emas.

Korxonada faqat bitta kassa daftari yuritiladi. U raqamlangan, shnurlangan yoki mastika muhr bilan muhrlangan bo‘lishi kerak. Kassa daftarida raqamlangan betlar soni ko‘rsatilib, korxona rahbari va bosh buxgalter imzosi bilan tasdiqlab qo‘yiladi. Kassa daftaridagi qaydlar qora qog‘oz orqa nusxada qilinadi. Har kuni ish oxirida kassir bir kunda qilingan operatsiyalarni hisoblab chiqaradi, keyingi kunga kassada qolgan pul miqdorini va to‘lov kaydnomasi bo‘yicha chiqimga hisobdan chiqarilmagan summani chiqaradi. Ikkinchi qirqma (kassirning hisoboti - bir kunda kassa daftarida qilingan qaydlarning nusxasi) kirim va chiqim hujjatlari bilan birga buxgalteriyaga topshiriladi va bu haqda kassa daftariga kayd etiladi.

Kassa operatsiyalari buxgalteriya hisobi quyidagi hisobvaraqlarda aks ettiriladi: 5010 – “Milliy valyutadagi pul mablag‘lari” 5020 – “Xorijiy valyutadagi pul mablag‘lari”.

2.1-jadval

5000-«Kassadagi pul mablag‘lari»ni hisobga oluvchi hisobvaraqlar korrespondensiyasi²¹

№	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	hisobvaraqlar korrespondensiyasi		YOzuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
1	Bankdagi tegishli hisobvaraqlardan pul mablag‘larining kassaga kelib tushishi (ish haqi, nafaqa, mukofotlar)	5010	5110, 5210	Pul cheki pattasi va ko‘chirmasi, kassaning kirim orderi kassa kitobi
2	Yo‘ldagi pul mablag‘larining kelib tushishi	5010	5620	Kirim to‘g‘risidagi tasdiqnoma

²¹ Каримов А.А. ва бошқ. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 310.

3	Mahsulot ish va xizmatlarning naqd pulga sotilishi	5010	9010-9030	Sotish vedomosti va kassaning kirim orderi
4	Hisobdor shaxslar tomonidan olingan va ishlatilmagan ortiqcha summalarining qaytarilishi	5010	4230	Bo'nak hisoboti va kassaning kirim orderi
5	Pul mablag'larining kassadan hisoblashish hisobvarag'iga qaytarilishi	5110	5010	Topshirish e'loni va bankning ko'chirmasi
6	Kassadan ish haqi va boshqa to'lovlarning (yordam pullari, mukofotlar, ishtirok etishdan daromadlar)ning berilishi	6710	5010	To'lov vedomosti va kassa chiqim orderi
7	Bir martalik yordam pulining kassadan to'lanishi	9430	5010	Kassa chiqim orderi, rahbarning buyrug'i va ariza

Jurnal-order shakli bo'yicha hisobga olishda kassa bo'yicha operatsiyalar 1-jurnalda (5000 – “Kassa” hisobvarag'ining kredit oborotlari) va jurnal-orderga kiruvchi 1-qaydnomada (5000 – “Kassa” hisobvarag'ining debet oborotlari) aks ettiriladi. Aytib o'tilgan registrarga qilinadigan qaydlar kassirning tekshirilgan va ishlov berilgan Hisobotlari asosida har kuni olib boriladi. Kassa muomalalarini olib borish tartibida inventarizatsiya qilish ko'zda tutilgan.

2.2-jadval

“GISHT - SIFAT” xususiy korxonasi pul mablag'larining tarkibi²²

foizda

Pul mablag'lari	2014 y.	2015 y.	2016 y.
Kassadagi naqd pullar	0,3	0,1	0,1
Joriy hisobraqamdagi pullar	76,6	67,2	70,3
Xorijiy valyutadagi pul mablag'lari	20,7	28,4	25,7
Boshqa pul mablag'lari	2,4	4,3	3,9
Pul mablag'lari - jami	100,0	100,0	100,0

2.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, kassadagi naqd pullar “GISHT - SIFAT” xususiy korxonasi pul mablag'larining hajmida juda kichik salmoqni egallaydi. Korxonaning milliy valyuta va xorijiy valyutadagi joriy hisobraqamlaridagi pul mablag'lari esa, pul mablag'lariinng umumiy hajmida

²² “GISHT - SIFAT” хусусий корхонасининг Бухгалтерия баланси (1-шакл) маълумотларига асосан муаллиф томонидан ҳисобланди.

yuqori salmoqni egallaydi. Bu esa, Korxonaning hisob-kitoblarini naqd pulsiz amalga oshirilayotganligi bilan izohlanadi.

2016 yilning fevral oyi uchun “GISHT - SIFAT” xususiy korxonasi tijorat bankidan ish haqi uchun 34 mln. 780 ming so‘m miqdorida naqd pul oldi. Korxonaning Bosh kitobida ushbu operatsiya quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi bilan rasmiylashtirildi:

Debet	5010	34 780 000 so‘m
Kredit	5110	34 780 000 so‘m

Mablag‘ to‘lovchi va oluvchiga bitta bank muassasasi tomonidan xizmat ko‘rsatiladigan hisob-kitoblai topshiriqnoma asosida uch nusxada taqdim etiladi. Birinchi nusxa to‘lovchi bankida memorial order bo‘lib xizmat qiladi, ikkinchi nusxa bir shahardagi o‘tkazishlarda uning hisobvarag‘idan yozish chog‘ida oluvchiga yuboriladi, uchinchi nusxasi to‘lovchiga berilib, topshiriqnoma qabul qilinganligi to‘g‘risida tilxat va bank muassasasi shtampi bilan beriladi. Agar mablag‘ to‘lovchi va oluvchiga bir shaharda joylashgan turli bank muassasalari xizmat ko‘rsatayotgan bo‘lsa, topshiriqnoma to‘rt nusxada taqdim etiladi, ularning birinchisidan memorial order sifatida foydalaniladi, ikkinchi va uchinchi nusxalari to‘lovdan so‘ng mablag‘ oluvchining bankiga yuboriladi, bunda ikkinchi nusxa order bulib xizmat qiladi va bankda qoladi, uchinchi nusxa oluvchi hisobvarag‘idan ko‘chirmaga ilova qilinadi, to‘rtinchi nusxa to‘lovchiga tilxat va bank shtampi bilan birga kaytariladi. Ijro uchun qabul qilingan topshiriqnomalar summalari topshiriqnomalarda ko‘rsatilgan to‘lovchilar hisobvarag‘idan o‘chiriladi. Akseptlangan topshiriqnoma to‘lovga faqat to‘lov summada qabul qilinishi mumkin. Akseptlangan topshiriqnomalarni qabul qilganda bank topshiriqnomaning orqa tomonida ularni to‘lash uchun qabul qilgan korxonaning qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan shtampi bo‘lishini nazorat qilishi kerak. Hisob-kitobni bank tomonidan akseptlangan topshiriqnoma bilan amalga oshirmoqchi bo‘lgan to‘lovchi unga xizmat ko‘rsatuvchi bank muassasasiga aksept uchun topshiriqnomani (0401002) uch nusxada taqdim etadi. Dastlabki ikki nusxaga imzo chekilishi va muhr izi tushirilishi shart.

Topshiriqnomani bajarish mumkinligi va u to'g'ri rasmiylashtirilgani tekshirilganidan so'ng uning summasi bank muassasasi tomonidan topshiriqnoma taqdim etgan to'lovchining hisobvarag'idan o'chiriladi va «Akseptlangan to'lov topshiriqnomalari va banklarning hisob-kitob cheklari» hisobvarag'ida deponentlanadi. Topshiriqnomaning birinchi nusxasi bank muassasasi muhri izi bilan tasdiqlanadi va to'lovchining ishonchli vakiliga beriladi, bu vakilning imzosidan namuna topshiriqnoma ikkinchi nusxasida keltiriladi. Zarurat tug'ilganda bank ishonchli vakil shaxsni tasdiklaydigan hujjatlarni topshiradi. O'tkazma yuboruvchidan qabul qilingan akseptlangan topshiriqnomalarni aloqa korxonalari va transport tashkilotlari ularga xizmat ko'rsatuvchi bank muassasalariga to'lov topshiriqnomalarining blanklardagi reestrda (0401007) topshiradi.

Akseptlangan topshiriqnoma uning aksept kunidan boshlab bir oy davomida to'lash uchun taqdim etilmaganda ushbu topshiriqnoma summasi "Akseptlanmagan to'lov topshiriqnomalari va banklarning hisob-kitob cheklari" hisobvarag'idan "Boshqa debitorlar va kreditorlar" balans hisobvarag'iga o'tkaziladi va keyin da'vo muddati tugaganidan so'ng respublika byudjetining daromadiga o'tkaziladi.

To'lov topshiriqnomasi bo'yicha pul o'tkazib berilganida quyidagi yozuvlar qilinadi:

D-t 6410 – "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzдорlik"

D-t 6520 – "Davlat maksadli fondlariga to'lovlar"

D-t 6990 – "Boshqa majburiyatlar"

K-t 5110 – "Hisob-kitob schyoti"

To'lovlarning to'lov talabnoma-topshiriqnomalari shaklida mol etkazib beruvchi mahsulotni yuklab jo'natgandan so'ng to'lov talabnomasini yozib, unga xizmat ko'rsatadigan bankka topshiradi.

To'lov talabnoma-topshiriqnomasi mol etkazib beruvchining xaridorga bankni chetlab o'tib, unga yuborilgan to'lov va yuklab jo'natish hujjatlari asosida, shartnoma bo'yicha etkazib berilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va

ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini to'lash to'g'risidagi talabini ifodalaydi. To'lovchi olingan to'lov talabnoma-topshiriqnomasini to'lash imkoniyatini belgilab, uni xizmat ko'rsatuvchi bank muassasasiga topshiradi. To'lov talabnoma-topshiriqnomalarini mol etkazib beruvchi 0401040 - son blankda yozadi va shartnomada ko'zda tutilgan yuklab jo'natish hamda boshqa hujjatlar bilan birga 3 nusxada bevosita xaridorga yuboriladi.

Birinchi nusxa belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, mol etkazib beruvchining imzolari va muhr izi qo'yilgan bo'lishi kerak. To'lov talabnoma-topshiriqnomasi to'lovchi hisobvarag'ida mablag' bo'lganida qabul qilinadi.

To'liq yoki qisman to'lashga rozi bo'linganda to'lovchi to'lov talabnoma-topshiriqnomasining barcha nusxalarini hisobvaraqli tasarruf etishga vakolatli shaxslar imzolari va muhr izi bilan rasmiylashtiradi hamda ularning hammasini xizmat ko'rsatuvchi bankka topshiradi. Bunda:

- birinchi nusxa mablag'larni to'lovchi hisobvarag'idan chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi va muomala yakunlanganidan so'ng bank uchun hujjatlarda joylashtiriladi;

- ikkinchi nusxa mol etkazib beruvchiga xizmat ko'rsatadigan bankka yuboriladi;

- uchinchi nusxasi yuklab junatish xujjatlari bilan birga jo'natish uchun qabul qilish va tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar haqi tulangani to'g'risida tilxat sifatida to'lovchiga qaytariladi;

- to'lovchi bankka akseptlangan to'lov talabnoma-topshiriqnomalarini taqdim etishi shart bo'lgan muddatni tomonlar shartnomada belgilaydi va uni bank nazorat qilmaydi.

To'lov talabnoma-topshiriqnomasi unga ilova qilingan yuklab jo'natish hujjatlari to'lashdan bosh tortilgani to'g'risidagi xabarnoma bilan birga bevosita mol etkazib beruvchiga qaytarib beriladi. Kelib tushgan va to'lanmagan to'lov hujjatlari hisobini to'lovchi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan tartibda amalga oshiradi.

Rejali to'lovlar orqali olib boriladigan hisob-kitoblar hisobi mol yuboruvchining balansida 4010 – “Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar” hisobvarag‘ining “Rejali to'lovlar hisob-kitobi” analitik hisobvarag‘ida yuritiladi.

Mahsulot sotilganida quyidagicha provodka beriladi:

D-t 4010 – “Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”

K-t 9010-«Mahsulotni sotishdan olingan daromad».

Sotilgan mahsulotning puli kelib tushganida quyidagicha provodka beriladi:

D-t 5110-«Hisob-kitob schyoti»

K-t 4010-«Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar».

Mijoz (korxona) chek daftarchalarini unga xizmat ko'rsatuvchi bank muassasasidan oladi. Mehnatga xaq to'lash, pensiyalar, kasallik varakasi bo'yicha nafakalar, mukofotlar, xizmat safarlari va xo'jalik xarajatlari uchun nakd pullarni bank cheki asosida korxonaning Hisob-kitob schyotidan shu korxona kassasiga beradi.

Pul cheki korxonaning hisob-kitob schyotidan chekda ko'rsatilgan nakd pul summasini berish to'g'risida bankka bergan farmoyishidan iborat. Chek siyoxda yoki sharikli ruchkada to'ldiriladi. Unda summa, chek berilgan vaqt, oluvchining nomi, shuningdek olingan summa-ning nima maksadda ishlatilishi ko'rsatiladi.

badallari haqidagi e'lon bilan xisob-kitob schyotiga nakd pullar topshirilganligi rasmiylashtiriladi. Ushbu xujjat bir nusxada tuldiriladi va unda to'lanadigan pulning xosil bulish manbai kursatiladi. Bank qabul qilingan pulga kassirga kvitansiya beradi, u buxgalteriyada kassa chiqim orderini tuzish va kassa bo'yicha pul mablag'larini xisobdan chikarish uchun asos vazifasini o'taydi. Xisob-kitob schyotidagi barcha o'zgarishlar haqida bank o'z mijozini xisob-kitob schyotidan ko'chirmalar berish orkdli xabardor qiladi

Korxonaning hisob-kitob schyotidagi O'zbekistan Respublikasi milliy valyutasidagi pul mablag'larining miqdori va harakatini hisobga olish uchun 5110-«Xisob-kitob aktiv pul hisobvaragidan foydalaniladi.


2.3-jadval

5110 - “Hisob-kitob schyoti” hisobvarag‘i bo‘yicha hisobvaraqlar korrespondensiyasi²³

№	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Hisobvararqlar korrespondensiyasi		YOzuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
1	Mahsulot, ish va xizmatlarning sotilishidan olingan tushumlarning kirim qilinishi	5110	4010	xisob-kitob schyotidan ko‘chirma
2	Asosiy vositalar va boshka aktivlarning sotilishidan tushgan tushumlarning kelib tushishi	5110	4010	xisob-kitob schyotidan ko‘chirma
3	Kassadan nakd pulning xisob-kitob schyotiga qaytarilishi	5110	5010	topshirish e‘loni va xisob-kitob schyotidan ko‘chirma
4	Bankdan kassaga pul mablag‘larining kelib tushishi (mehnat haqi, nafaka, mukofotlar va boshkalar uchun)	5010	5110	hisob-kitob schyotidan ko‘chirma va pul cheklari
5	Byudjetga xisoblangan to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik summalarining o‘tkazilishi	6410	5110	to‘lov topshiriqnomasi, inkasso va xisob-kitob schyotidan ko‘chirma
6	Mol etkazib beruvchilarga sotib olingan TMZlar qiymatining tulanishi	6010	5110	to‘lov topshiriqnomasi, xisob-kitob schyotidan ko‘chirma

Buxgalteriya hisobining jurnal-order shaklidagi korxonaning xisob-kitob schyoti muomalalari 2-jurnal-orderda va 2-qaydnomada aks ettiriladi. Ko‘rsatilgan registrlarni **y**ozuvlar qat’iy xronologik tartibda xisob-kitob schyotlari bo‘yicha tekshirilgan va ishlov berilgan ko‘chirmalar va ularga ilova qilingan pul hisob-kitob hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

²³ Каримов А.А. ва бошқ. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 326.



2.1-rasm. “GISHT - SIFAT” xususiy korxonasida hisob-kitob schyoti qoldig'ining o'zgarishi²⁴, ming so'm

2.1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2014-2016 yillarda “GISHT - SIFAT” xususiy korxonasi hisob-kitob schyotining qoldig'i nobarqaror bo'lgan. Buning ustiga, hisob-kitob schyotining qoldig'i 2016 yilda 2015 yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Mazkur holatlar korxonaning likvidligini ta'minlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

2016 yil 15 iyun kuni “GISHT - SIFAT” xususiy korxonasi hisob-kitob schyotiga sotilgan g'isht mahsuloti uchun 14606 ming so'm pul mablag'i kelib tushdi.

Ushbu operatsiya Bosh kitobda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan rasmiylashtiriladi:

Debet	5110	14606000 so'm
Kredit	4010	14606000 so'm

Korxonalarda pul mablag'lari akkreditivga kiritilishi 5510-«Akkreditivlar» Hisobaragi debetida xo'amda 5110-«Xisob-kitob schyota», 5210-«Valyuta schyoti», 6810 - «Qisqa muddatli kreditlar» hisobvaraqdari va shunga uxshash boshqa Hisobvaradlarning kredit qismida aks ettiriladi.

5510-«Akkreditivlar» hisobvarag'i bo'yicha hisobga olingan akkreditivdagi mablaglar ulardan foydalanilishiga qarab (bank bergan

²⁴ Рasm “GISHT - SIFAT” хусусий корхонасининг Бухгалтерия баланси (1-шакл) маълумотларига асосан муаллиф томонидан тузилган.

ko‘chirmalarga muvofiq), odatda, 6010 - «Mahsulot etkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» hisobvarag‘i debetiga o‘tkazib boriladi. Akkreditivlardagi foydalanilmagan mablag‘larni bank ular olingan hisobvaraqa tiklagandan keyin bu summalar 5510-«Akkreditivlar» hisobvarag‘i kreditida 5110-«Hisob-kitob schyoti» yoki 5210-«Valyuta schyoti» hisobvaraqdari bilan korrespondensiyada aks ettiriladi. 5510-«Akkreditivlar» xo‘isobvaragiga doyr tahliliy xisob korxona ochgan har bir akkreditiv bo‘yicha yuritiladi.

2.2. Valyuta operatsiyalari hisobining zamonaviy holati

Mamlakat xududida va uning tashkarisida joylashgan bankdagi xorijiy valyuta schyotlaridagi pul mablag‘larining xarakati va holati to‘g‘risida umumlashtirilgan ma’lumot quyidagi Hisobvaraqlarda amalga oshiriladi: 5210-«Mamlakat ichidagi xorijiy valyuta Hisobvaraqlari» 5220-«Xorijdagi valyuta hisobvaraqlari».

Korxonaning valyuta mablag‘lari hisobvaraqlari debetida korxona valyuta schyotlariga mablag‘larning tushumi, kredit tomonida esa ushbu mablag‘larning chiqimi aks ettiriladi.

Buxgalteriya hisobida valyuta schyotlari bo‘yicha muomalalar bank ko‘chirmalari va ularga ilova qilingan pul-hisoblashish xujjatlari asosida olib boriladi. Korxona valyuta mablag‘larining tahliliy hisobi xorijiy valyutada pul mablag‘larini saklash uchun bank muassasalarida ochilgan xar bir hisobvaraqa bo‘yicha ochiladi.

2.4-jadval

5200 – “Valyuta hisobvaraqlari”dagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi hisobvaraqlarning korrespondensiyasi²⁵

№	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Hisobvaraqlar korrespondensiyasi		YOzuvlarni asdiqlovchi xujjatlar
		Debet	Kredit	
1	Qarzdor korxonalar tomonidan ueoq muddatli qarzlarning	5210-5220	7820	Valyuta schyotidan

²⁵ Каримов А.А. ва бошқ. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 337.

	qaytarilishi			ko'chirma
2	Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan valyuta kiriminig aks ettirilishi	5210	4010	Valyuta schyotidan ko'chirma
3	Asosiy valyutalar va boshqa aktiqvlarning sotilishidan bankka kelib tushgan valyuta kiriminig aks ettirilishi	5210	4010	Valyuta schyotidan ko'chirma
4	Valyuta mablag'larining kassadan valyuta schyotiga berilishi	5210	5010	Pul topshirish e'loni valyuta Hisobvarag'idan ko'chirma
5	Bankdan kassaga valyuta mablag'larning kelib tushishi	5010	5210	Valyuta schyotidan ko'chirma
6	Kelib tushgan TMBlar uchun mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga bo'lgan qarzni o'tkazilishi	6010	5210	To'lov topshriqnomasi va valyuta schyotidan ko'chirma
7	Bankning uzoq va qisqa muddatli qarzlarning uzilishi	7810-6810	5210	To'lov topshriqnomasi va valyuta schyotidan ko'chirma

Xorijiy valyuta xarakati to'g'risidagi ma'lumotni bank muassasasi korxonaga valyuta schyotidan ko'chirma berish yuli bilan xabar beradi. 5210-“Mamlakat ichidagi valyuta hisobvaraqlari”ning kredit oboroti 2/1-jurnal-orderda aks ettiriladi. Bu xisobvaraqlarning debet oboroti 2/1-qaydnomani yuritish bilan nazorat ko'ilinadi. Valyuta hisobvarag'i bo'yicha tahliliy hisob kartochkalarida, valyutalarning nomlari bo'yicha yuritiladi.

Xorijiy valyutani sotish va sotib olishda sodir bo'ladigan kursdagi fark ijobiy bo'lsa 9540-«Kurs farklaridan olingan daromadlar» hisobvarag'ida, salbiy bo'lsa - 9620-K'urs farklaridan zararlar» hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Milliy valyutamiz-so'mning nominal almashuv kursi Respublika valyuta birjasida aniqlanadi.

Respublikamizda so'mning nominal birja kursi valyutalarning buyurtmali savdosi asosida amalga oshiriladigan oldi - sotdi mexanizmi orqali shakllanadi. Mazkur mexanizmning mohiyati shundaki, O'RVBga a'zo bo'lgan tijorat banklari

ikki xildagi buyurtmalarni birjaga beradilar: a) AQSH dollarini sotib olish maqsadida soʻmda berilgan buyurtmalar; b) AQSH dollarini sotish maqsadida berilgan buyurtmalar (dollarda berilgan buyurtmalar). Markaziy bankning Bosh dileri buyurtmalarni qabul qilishni toʻxtatish toʻgʻrisidagi buyruqni bergandan soʻng har ikkala xildagi buyurtmalar boʻyicha jami nominal miqdorlar aniqlanadi. SHundan keyin soʻmda berilgan buyurtmalarning jami summasini AQSH dollaridagi buyurtmalar summasiga boʻlish yoʻli bilan oʻzbek soʻmining 1 AQSH dollariga nisbatan nominal birja kursi aniqlanadi. Soʻmning valyuta kursini 1 AQSH dollariga nisbatan aniqlanayotganligi soʻmning toʻgʻri kotirovka rejimiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Xorijiy valyutaning sotilishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi: valyuta schyotidan xorijiy valyutani Markaziy bank kursi boʻyicha utkazilishi: '«Banklardagi maxsus schyotlar» hisobvaragʻining «Blokschyot» analitik hisobvaragʻi

D-t «Valyuta hisobvaragʻi».

Markaziy bank kursi boʻyicha xorijiy valyutani «Blokschet»dan chiqarilishi:

D-t «Boshqa aktivlarning sotilishi»

K-t «Banklardagi maxsus schyotlar» hisobvaragʻining «Blokschyot» analitik hisobvaragʻi.

valyuta bozorida kelishilgan kurs boʻyicha sotilgan xorijiy valyutaning soʻm ekvivalentining hisob-kitob hisobvaragʻiga utkazilishi:

D-t «Hisob-kitob schyoti»

K-t «Boshqa aktivlarning sotilishi».

xorijiy valyutani sotishda xosil boʻlgan ijobiy kurs farqini Markaziy bank kursidan ortigining aks ettirilishi:

D-t «Boshqa aktivlarning sotilishi»

K-t «Kurs farklaridan olingan daromadlar».

Xorijiy valyutani sotishda xosil boʻlgan salbiy kurs farqining (Markaziy Bank kursidan past) aks ettirilishi:

D-t «Kurs farklaridan zararlar»

K-t «Boshqa aktivlarning sotilishi».

Korxonalar joriy valyuta operatsiyalari bilan birgalikda tijorat banklari bilan muddatli valyuta operatsiyalarini amalga oshiradilar.

Muddatli valyuta operatsiyalarining 3 shakli mavjud:

1. Forvard valyuta operatsiyalari.
2. Valyuta opsionlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar.
3. Valyuta fyucherslari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar.

Forvard valyuta operatsiyasi deganda, ma'lum bir valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish yoki sotish operatsiyasiga aytiladi.

Forvard valyuta operatsiyalari valyuta zaxiralarini valyuta riskidan himoya qilish maqsadida qo'llaniladi. SHu bilan birga, tijorat banklari forvard operatsiyalaridan daromad olish maqsadida foydalanadi.

Forvard shartnomalari quyidagi standart muddatlarga tuziladi: 1 hafta, 1, 2, 3, 6, 9, 12 oy.

Forvard operatsiyalari forvard kurslar asosida amalga oshiriladi.

Forvard kursi forvard shartnomasi imzolanayotgan paytda belgilab qo'yiladigan kurs bo'lib, shartnoma ijrosiga qadar o'zgarmasdan qoladi.

Forvard kurslari hech qachon spot kurslari kabi aniqlanmaydi. Tijorat banklarining dilerlari doimo forvard marjasi bilan ishlaydi, xolos. Forvard marjasi deganda ustama va diskont tushuniladi.

Ustama va diskont bitta formula orqali aniqlanadi. Bu formula quyidagi ko'rinishga ega:

$$U / D = \frac{SK \times FSO'F \times FSHM \text{ (kunlarda)}}{(360 \times 100) + (BVFS \times FSHM \text{ (kunlarda)})}$$

Bu erda:

U / D –ustama yoki diskont.

SK – spot kurs.

FSO‘F – foiz stavkalari o‘rtasidagi farq. Foiz stavkalari o‘rtasidagi farq aniqlanayotganda bitim valyutasi bo‘yicha kreditlarning foiz stavkasi olinadi, baholovchi valyuta bo‘yicha esa, depozitlarning foiz stavkasi olinadi.

FSHM – forward shartnomasining muddati.

BVFS – bitim valyutasi bo‘yicha foiz stavkasi.

Agar bitim valyutasi bo‘yicha kreditlarning foiz stavkasi baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasidan kichik bo‘lsa, u holda formula orqali aniqlangan natija ustama hisoblanadi. Agar bitim valyutasi bo‘yicha kreditlarning foiz stavkasi baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasidan katta bo‘lsa, u holda formula orqali aniqlangan natija diskont hisoblanadi.

Forward marjasi quyidagi sabablarga ko‘ra kotirovka qilinadi:

Birinchidan, forward marjalari ko‘pchilik holatlarda o‘zgarmasdan qoladi, spot kurslari esa tez-tez o‘zgaradi, shu sababli, ustama va diskontlarning kotirovkasiga kam tuzatish kiritiladi.

Ikkinchidan, valyuta bitimlarining sezilarli qismida forward kurslarini emas, balki ustama va diskontni bilish talab qilinadi.

Forward operatsiyalari korxonalar uchun balansdan tashqari operatsiya hisoblanadi, shu sababli, birinchi navbatda, forward shartnomalari so‘mmasini tegishli balansdan tashqari hisobraqamlarda to‘g‘ri aks ettirilganligini tekshirish lozim.

Tahlil jarayonida forward shartnomalarining muddati tugagandan so‘ng amalga oshirilgan buxgalteriya o‘tkazmalari ham sinchiklab tekshirilishi lozim.

Balans hisobraqamlari bo‘yicha buxgalteriya o‘tkazmalari berilgandan so‘ng forward operatsiyalari bo‘yicha ochilgan balansdan tashqari hisobraqamlar yopiladi.

Muddati kelmagan valyuta shartnomalarining qiymatining qayta baholash O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy hisobot tuzilayotgan kundagi birja kursi bo‘yicha amalga oshiriladi. Bunga qadar barcha xorijiy valyutalardagi shartnomalarning so‘mmasi AQSH dollariga aylantiriladi. Undan

keyin shartnomalarning dollardagi qiymati Markaziy bankning birja kursi bo'yicha so'mga aylantiriladi.

Muddati kelmagan muddatli valyuta operatsiyalari bo'yicha aniqlangan foyda va zararlar realizatsiya qilinmagan foyda va zararlar deyiladi.

Muddatli valyuta operatsiyalarining ikkinchi shakli valyuta opsionlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar hisoblanadi. Ushbu operatsiyalarni amalga oshirishda asosiy e'tibor buxgalteriya o'tkazmalarini to'g'ri rasmiylashtirilganligiga, operatsiyalarning daromadlilikiga va mazkur operatsiyalardan ko'rilgan zararlarni baholashga qaratiladi. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari tomonidan berilgan kol opsionlar alohida, put opsionlar alohida baholanadi.

Kol opsionlar ma'lum miqdordagi valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish huquqini beradi. Put opsionlar esa, ma'lum miqdordagi valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotish huquqini beradi.

Valyuta opsionlari valyuta forward operatsiyalaridan farqli ravishda o'z egasiga majburiyat yuklamaydi, balki faqat huquq beradi. SHuning uchun ham valyuta opsionlari valyuta riskidan 100% himoyalaniş imkonini beradigan yagona moliyaviy instrument hisoblanadi.

Valyuta fyucherslari valyutalarni sotib olish yoki sotish to'g'risidagi shartnoma bo'lib, ular bo'yicha hisob-kitoblar faqat kliring palatalari orqali amalga oshiriladi. Kliring palatalari tijorat banklaridan avans to'lovlari o'tkazishni talab qiladi. Avans to'lovlari fyucherslar yuzasidan amalga oshiriladigan hisob-kitoblarning uzluksizligini ta'minlash maqsaidida o'tkaziladi. Valyuta fyucherslari valyuta opsionlaridan farqli ravishda ishtirok etuvchi tomonlarga majburiyat yuklaydi. Valyuta opsionlarining egalarida esa, huquq bor, ammo majburiyat mavjud emas.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

Korxonalarda pul mablag'larining buxgalteriya hisobi kassa operatsiyalari hisobi va naqdsiz pul mablag'lari hisobidan iborat bo'lib, bankdan anqd pullarni

olish va tushgan naqd pullarni bankka topshirish bilan bog'liq bo'lgan barcha operatsiyalarning buxgalteriya o'tkazmalarini rasmiylashtirishdan iborat

Kassa operatsiyalari buxgalteriya hisobida quyidagi hisobvaraqlarda aks ettiriladi: 5010 – “Milliy valyutadagi pul mablag'lari”, 5020 – “Xorijiy valyutadagi pul mablag'lari”.

Tahlil natijalari ko'rsatdiki, kassadagi naqd pullar “GISHT - SIFAT” xususiy korxonasi pul mablag'larining hajmida juda kichik salmoqni egallagani holda, korxonaning milliy valyuta va xorijiy valyutadagi joriy hisobraqamlaridagi pul mablag'larini pul mablag'lariinng umumiy hajmida yuqori salmoqni egallashi kuzatildi. Mazkur holat Korxonaning hisob-kitoblarini naqd pulsiz amalga oshirilayotganligi bilan izohlanadi.

To'lov topshiriqnomasi bo'yicha pul o'tkazib berilganida quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari rasmiylashtiriladi:

D-t 6410-«Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzдорlik»

D-t 6520-«Davlat maksadli fondlariga to'lovlar»

D-t 6990-«Boshqa majburiyatlar»

K-t 5110-«Hisob-kitob schyoti».

Korxonalarning hisob-kitob schyotidagi O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi pul mablag'larining miqdori va harakatini hisobga olish uchun 5110 – “Hisob-kitob schyoti” hisobvaragidan foydalaniladi.

Korxonalarda pul mablag'larini bilan to'lovlarni akkreditiv bilan amalga oshirishda 5510 – “Akkreditivlar» hisobaragi debetida hamda 5110 – “Hisob-kitob schyoti”, 5210 – “Valyuta schyoti”, 6810 – “Qisqa muddatli kreditlar” hisobvaraqlarining kredit qismida aks ettiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida joylashgan bankdagi xorijiy valyuta schyotlaridagi pul mablag'larining harakati va holati to'g'risida umumlashtirilgan ma'lumot 5210 – “Mamlakat ichidagi xorijiy valyuta hisobvaraqlari” va 5220 – “Xorijdagi valyuta hisobvaraqlari”da aks etadi.

Xorijiy valyutani sotish va sotib olishda sodir bo‘ladigan kursdagi farq ijobiy bo‘lsa 9540 – “Kurs farqlaridan olingan daromadlar” hisobvarag‘ida, salbiy bo‘lsa – 9620 – “Kurs farqlaridan zararlar” hisobvarag‘ida hisobga olinadi.

3-BOB. “PUL MABLAG‘LARI VA VALYUTA OPERATSIYALARI HISOBI” MAVZUSINI O‘RGANISHDA BIR NECHTA METODLARNI QO‘LLASH METODIKASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

3.1. “Pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalari hisobi”ni o‘rganishda bir nechta metodlarni qo‘llash metodikasi

“Pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalari hisobi”ni o‘rganishda bir nechta metodlarni qo‘llash metodikasi quyidagi ikki metodga asoslangan metodikadir:

- * bevosita metod;
- * bilvosita metod.

Bilvosita metod pul mablag‘lari tushumini kirim qilish va xarajatlarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Bunda pul mablag‘lari tushumi sifatida mahsulotlarni sotishdan olingan tushum, banklardan kreditlar olish, moliyaviy faoliyatdan daromad olish, etkazib beriladigan tovarlar uchun olinadigan bo‘naklar kabi aniq pul tushumlari ko‘zda tutiladi.

Pul mablag‘lari chiqimi bilan bog‘liq xarajatlar etkazib berilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish, banklardan olingan ssudalarni qaytarish, davlat byudjetiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash, mehnat haqi bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish kabi to‘lovlarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

Bilvosita metod pul mablag‘larining harakati bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarni identifikatsiya qilish va hisobga olishni hamda sof foydani korrektirovka qilishni ko‘zda tutadi.

Bilvosita metodda operatsiyalar uchta faoliyat turi bo‘yicha guruhlanadi:

* joriy faoliyat – mahsulotlarni sotishdan tushum olish, mol etkazib beruvchilar foydasiga avanslar, to‘lovlar, qisqa muddatli kreditlar olish, qisqa muddatli qarz mablag‘larini jalb qilish, ish haqi to‘lash, davlat byudjetiga to‘lovlarni amalga oshirish, kreditlar va qarz majburiyatlari bo‘yicha foizlar to‘lash;

* investitsion faoliyat – pul mablag‘larining asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar sotib olish bilan bog‘liq bo‘lgan harakati;

* moliyaviy faoliyat – uzoq muddatli kreditlar olish, uzoq muddatli qarz mablag‘larini jalb qilish, qisqa va uzoq muddatli moliyaviy quyilmalarni amalga oshirish, dividendlar to‘lash.

Pul oqimini bevosita metod bo‘yicha hisoblash korxonaning to‘lovga qobilligini baholash hamda pul mablag‘larining kirimi va chiqimi ustidan tezkor nazoratni amalga oshirish imkonini beradi.

Pul mablag‘larini bilvosita metod bo‘yicha tahlil qilish joriy davrda sof pul oqimini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni hisoblash hamda olingan foyda bilan pul mablag‘lari qoldig‘ining o‘zgarishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash aniqlash imkonini beradi.

Mazkur metod olingan moliyaviy natijalarni sof foydani korrektirovka qilish maqsadida qayta hisoblashlarga asoslangan.

Sof pul mablag‘lari miqdori bilan olingan moliyaviy natijalar miqdori o‘rtasidagi farqning yuzaga kelishining asosiy sababi shundaki, moliyaviy natijalar hisoblash prinsipiga muvofiq shakllanadi, pul mablag‘lari miqdorining o‘zgarishi kassa usuli bilan aniqlanadi.

Bundan tashqari, foydaga ta’sir qiladigan alohida daromad va xarajat turlarining shakllanishi pul mablag‘lari kirimi va chiqimining o‘zgarishiga olib kelmaydi. Masalan, amortizatsiyani hisoblash foydaning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatmaydi, ammo pul mablag‘lari chiqimining oshishiga olib kelmaydi. SHuningdek, joriy davrda debitor qarzдорlikning to‘lanishi moliyaviy natijalarga ta’sir ko‘rsatmaydi, ammo pul mablag‘lari oqimining ko‘payishiga olib keladi.

Bilvosita metodda bir qator tuzatishlar (korrektirovka) amalga oshiriladi va ularni uch guruhga ajratish mumkin:

1. Operatsiyalar bo‘yicha pul mablag‘lari kirimi va chiqimining hisobiga, daromad va xarajatlarni aks ettirish vaqtlarining mos kelmasligi bilan bog‘liq bo‘lgan, tuzatishlar.

2. Sof foyda ko'rsatkichiga bevosita ta'sir ko'rsatmaydigan, ammo pul mablag'larining harakatiga ta'sir etadigan xo'jalik operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan tuzatishlar.

3. Sof foyda miqdoriga bevosita ta'sir ko'rsatadigan, ammo pul mablag'lari harakatiga ta'sir etmaydigan operatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan tuzatishlar.

Biz quyida pul oqimini bilvosita metod bo'yicha tahlil qilish tartibini shartli misolda ko'rib chiqamiz. Buning uchun dastlab korxona buxgalteriya balansining ma'lumotlarini keltiramiz.

3.1-jadval

“A” korxonaning buxgalteriya balansining ma'lumotlari²⁶, ming so'm

Aktiv	Yil oxiriga		Passiv	Yil oxiriga	
	Bazaviy	Hisobot		Bazaviy	Hisobot
Asosiy vositalar	2600	2000	Ustav kapitali	1500	2010
Xom-ashyo va materiallar	1130	1910	Taqsimlanmagan foyda	2450	2775
Tayyor mahsulot	330	540	Qisqa muddatli kreditlar	650	530
Debitor qarzdorlik	990	1300	Kreditor qarzdorlik	520	670
Pul mablag'lari	70	235			
Balans	5120	5985	Balans	5120	5985

Qo'shimcha foydalanilgan ma'lumotlar: asosiy vositalarning amortizatsiyasi – 450 ming so'm; asosiy vositalarni sotishdan olingan tushum – 300 ming so'm; sotilgan asosiy vositalarning balans qiymati – 150 ming so'm. Balansda taqsimlanmagan foydaning o'zgarishi 2016 yil uchun sof foyda miqdoriga asoslangan.

Bilvosita metod bo'yicha pul oqimini baholashda pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobotni tuzish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, mazkur hisobot pul oqimining barqarorligi xususidagi xulosani shakllantirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi.

Biz quyida ana shu hisobotni tuzamiz.

3.2-jadval

Bilvosita metod bo'yicha “A” korxonaning pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotni tuzish²⁷, ming so'm

²⁶ Муаллифнинг шахсий ишланмаси.

²⁷ Муаллифнинг шахсий ишланмаси.

Pokazatel	Denejnye postupleniya	Denejnye rasxody
Pul mablagʻlarining yil boshidagi saldosi	70	
Sof foyda miqdori	325	
Amortizatsiya summasi	450	
Xom-ashyo qoldigʻining koʻpayishi		780
Tayyor mahsulotlar qoldigʻining koʻpayishi		210
Debitor qarzdorlikning koʻpayishi		310
Kreditor qarzdorlikning koʻpayishi	150	
Qisqa muddatli kreditlarning kamayishi		120
Joriy faoliyat boʻyicha jami	925	1420
Joriy faoliyat boʻyicha sof pul oqimi	- 495	
Investitsion faoliyat	150	
Moliyaviy faoliyat	510	
Korxonaning sof pul oqimi	165	
Pul mablagʻlarining yil oxiridagi qoldigʻi	235	

SHunday qilib, joriy davrda korxonaning sof pul oqimi miqdorining olingan sof foyda miqdoriga nisbatan kam ekanligi sof foydaning sezilarli qismini joriy aylanma aktivlarni kapitalizatsiya qilishga ishlatilganligi bilan izohlanadi. Bu esa, kelgusi davrda joriy faoliyat boʻyicha sof pul oqimining koʻpayishini taʼminlaydi.

Korxonalarning pul oqimi barqarorligiga taʼsir etuvchi muhim omillardan biri sifatida moliyaviy risklarni koʻrsatish maqsadga muvofiqdir. Moliyaviy risklarning korxonalarning pul oqimiga nisbatan salbiy taʼsiri inflyasiya orqali yaqqol namoyon boʻladi. Mamlakatda talab inflyasiyasining mavjudligi umumiy talabning korxonalarning ishlab chiqarish imkoniyatlaridan yuqori boʻlishiga olib keladi. Natijada, tovarlar bahosining oʻsishi yuz beradi. CHiqim inflyasiyasida esa, ishlab chiqarish xarajatlarining oʻsishi natijasida tovarlar bahosining inflyasion oʻsishi yuz beradi.

Moliyaviy risklarning korxonalarning pul oqimiga nisbatan salbiy taʼsiri milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan qadrsizlanishida ham namoyon boʻladi. Milliy valyutaning qadrsizlanishi korxonalarning import toʻlovlari va xorijiy valyutalarda olingan kreditlarni qaytarish bilan bogʻliq boʻlgan toʻlovlari hajmini oshib ketishiga sabab boʻladi. Respublikamizda esa, milliy valyutaning

qadrsizlanish sur'ati nisbatan yuqori bo'lib, 2016 yilda so'mning AQSH dollariga nisbatan yillik qadrsizlanish sur'ati 15,0 foizni tashkil etdi²⁸.

O'zbekiston Respublikasi korxonalarining pul oqimi barqarorligiga salbiy ta'sir etuvchi omillardan biri bo'lib, soliq xizmati tomonidan kelgusi davrlarda to'lanadigan soliqlarni joriy davrda undirish maqsadida qo'yiladigan inkasso topshiriqnomalari hisoblanadi. Ma'lumki, soliq xizmati solishtirish dalolatnomasiz inkasso qo'yadi. Odatda, ushbu inkasso hujjati orqali undiriladigan soliqlarning sezilarli qismi kelgusi davrlarda undirilishi lozim bo'lgan soliq to'lovlariga to'g'ri keladi. Natijada, korxonaning pul oqimi barqarorligiga nisbatan salbiy ta'sir yuzaga keladi.

Debitor qarzdorlikning aylanish koeffitsientini pastligi va muddati o'tgan debitor qarzdorlik miqdorining katta ekanligi iqtisodiyotning pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasining past ekanligi, korxonalarning etarli darajada likvidli emasligi kabi omillarning mavjudligi bilan izohlanadi. Agar taraqqiy etgan mamlakatlarning amaliyotiga nazar soladigan bo'lsak, u holda, monetizatsiya koeffitsientining 80-90 % darajasida ekanligining guvohi bo'lamiz. Respublikamizda esa, monetizatsiya koeffitsienti 2017 yilning 1 yanvar holatiga 24,5 foizni tashkil qildi²⁹.

SHuningdek, taraqqiy etgan mamlakatlarda debitor qarzdorlikni faktor kompaniyalari va tijorat banklari tomonidan diskont asosida sotib olish usulidan keng foydalaniladi. O'zbekistonda esa, faktor kompaniyalari mavjud emas.

3.2. “Pul mablag'lari va valyuta operatsiyalari hisobi” mavzusini o'rganishda bir nechta metodlarni qo'llash metodikasini takomillashtirish yo'llari

Bitiruv malakaviy ishining 3.1-paragrafida tahlil qilingan “Pul mablag'lari va valyuta operatsiyalari hisobi” mavzusini o'rganishda bir nechta metodlarni

²⁸ www.cbu.uz, сайти маълумотлари.

²⁹ Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг статистик маълумотлари.

qo‘llash metodikasini takomillashtirish maqsadida, fikrimizcha, quyidagilarni amalga oshirish lozim:

1. O‘zbekiston Respublikasi korxonalari o‘rtasida debitor-kreditor qarzdorlik muammosining mavjudligi tufayli debitor qarzdorlikning korxonalarning pul oqimi barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligini hisobga olgan holda bir nechta metodlarga asoslangan metodikada korxonaning debitor qarzdorligini aylanish ko‘rsatkichini kiritish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma’lumotiga ko‘ra, 2016 yilning 1 dekabr holatiga ko‘ra, respublikamiz korxonalarining umumiy debitorlik qarzlari 95,5 trln. so‘mni tashkil etdi³⁰. Bu esa, korxonalar o‘rtasidagi to‘lovsizlik muammosining jididy ekanligidan dalolat beradi.

Fikrimizcha, debitor qarzdorlikni aylanish koeffitsientini ushbu metodikaga kiritilishi debitor qarzdorlikning korxona pul oqimiga nisbatan ta’sir darajasini aniq baholash imkonini beradi.

Hozirgi davrda, xalqaro amaliyotda debitor qarzdorlikning aylanishini aniqlashning quyidagi usulidan foydalanilmoqda³¹:

Debitor qarzdorlikning o‘rtacha qoldig‘i

Mahsulotlarni sotishdan olingan bir kunlik tushum

Debitor qarzdorlikning aylanish koeffitsienti kunlarda hisoblanadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda debitor qarzdorlikni aylanish ko‘rsatkichini baholash uchun korxonaning ushbu ko‘rsatkichi o‘rtacha tarmoq ko‘rsatkichi bilan taqqoslanadi. O‘zbekiston Respublikasida esa, o‘rtacha tarmoq ko‘rsatkichlari e’lon qilinmaydi. SHu sababli, korxonaning debitor qarzdorligini aylanishi ko‘rsatkichini uning oldingi davrlardagi holati bilan taqqoslash maqsadga muvofiqdir.

³⁰ Ходжаев С. Ўзбекистон Республикаси банк тизимининг 2016 йилдаги иш фаолияти якунлари ҳамда 2017 йилда банк тизими олдида қўйилган устувор вазифалар тўғрисида. – Тошкент: ЎзМБ, 2017.

³¹ Банковское дело. Учебник. Под ред. проф. О.И. Лаврушина. – М.:КНОРУС, 2016. – С. 355.

2. “Pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalari hisobi” mavzusini o‘rganishda bir nechta metodlarni qo‘llash metodikasiga valyuta operatsiyalari buyicha realizatsiya qilinmagan foyda va zararlarni aniqlashni kiritish zarur.

Hozirgi davrda respublikamizning bir qator yirik korxonalarida tijorat banklari bilan amalga oshiriladigan forvard operatsiyalari paydo bo‘ldi. Ammo korxonalar forvard operatsiyalari bo‘yicha realizatsiya qilinmagan foy va zararlarni aniqlamayaptilar. Holbuki, realizatsiya qilinmagan foyda yoki zararni aniqlash korxonaning forvard bitimi bo‘yicha kelugsida foyda yoki zarar ko‘rish ehtimolini baholash imkonini beradi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotida muddati kelmagan forvard, fyuchers, opsiyon bitimlari bo‘yicha doimiy ravishda realizatsiya qilinmagan foyda va zararlar summasi aniqlab boriladi. Respublikamizda muddatil valyuta bitimlarining valyuta opsiони va valyuta fyuchersi shakllari mavjud emas.

Respublikamiz korxonalarining forvard valyuta operatsiyalari bo‘yicha realizatsiya qilinmagan foydasi yoki zararini aniqlash uchun bitim summasining O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining birja kursi bo‘yicha va forvard kursi bo‘yicha aniqlangan milliy valyutadagi ekvivalentlari taqqoslanadi.

Misol. Korxonaning 1,0 mln. AQSH dollari sotib olish bo‘yicha forvard bitimi mavjud. Forvard kursi: 1 AQSH dollari = 3900,00 so‘m. Markaziy bankning birja kursi: 1 AQSH dollari = 3850,00 so‘m. Demak, bitimning forvard kursi bo‘yicha so‘mdagi ekvivalenti 3900 mln. so‘mga teng. Bitimning Markaziy bankning birja kursi bo‘yicha so‘mdagi ekvivalenti esa, 3850 mln. so‘mga teng. Ikkala summa o‘rtasidagi farq – 50 mln. so‘m – korxona uchun realizatsiya qilinmagan zarar hisoblanadi. Chunki, korxona arzon dollarni qimmat narxda sotib olayotgan hisoblanadi.


Agar forvard kursi Markaziy bankning birja kursidan past bo‘lsa, u holda, korxonada realizatsiya qilinmagan foyda yuzaga keladi.

Fikrimizcha, realizatsiya qilinmagan foyda va zarar uchun alohida balans schyotlari ochilishi va ushbu schyotlar bo‘yicha operatsiyalar to‘g‘ri rasmiylashtirilishi lozim.

3. Milliy valyuta-soʻmning qadrsizlanish surʻatining nisbatan yuqori ekanligi sababli korxonalar sof foydasini milliy valyutaning qadrsizlanish surʻatiga korrektirovka qilishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan qadrsizlanishi xom-ashyo va materiallar bahosini oshishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, korxona sof foydasining pasayishiga sabab boʻladi. SHu sababli, korxona sof foydasi miqdorini real qiymatiga baho berish maqsadida uni milliy valyutaning qadrsizlanish surʻatiga korrektirovka qilish lozim, deb hisoblaymiz.

Xalqaro valyuta fondi ekspertlari milliy valyutaning xorijiy valyutagi nisbatan yillik qadrsizlanish surʻatini 10 foizga etishini yuqori qadrsizlanish surʻati deb hisoblashadi.



3.1-rasm. Oʻzbekiston Respublikasida soʻmning AQSH dollariga nisbatan yillik qadrsizlanish surʻati³², foizda

3.1-rasm maʼlumotlaridan koʻrinadiki, respublikamizda milliy valyutaning qadrsizlanish surʻati sezilarli darajada yuqoridir.

Milliy valyutaning qadrsizlanish surʻatining yuqori ekanligi korxonalarning moliyaviy holatiga nisbatan salbiy taʼsirni yuzaga keltiradi. Mazkur salbiy taʼsir quyidagi shakllarda namoyon boʻladi:

³² Rasm muallif tomonidan www.cbu.uz sayti maʼlumotlari asosida tuzilgan.

* xom-ashyo va materiallar baholarining oshishi natijasida ishlab chiqarilayotgan tovarlarning tannarxi ko'payadi;

* importning qimmatlashishi natijasida korxonaning ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish imkoniyati pasayadi;

* korxona tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda murakkabliklar yuzaga keladi. Jumladan, mahsulotlarni sotishdan olingan so'mdagi tushmlar xorijiy valyutada olingan kreditlarni qaytarishga etmaydi;

* korxonalarning milliy valyutada yozilgan qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish yo'li bilan resurslar jalb qilish imkoniyatini cheklanib qolishiga olib keladi. Bu esa, ularning moliyalashtirish manbalarini shakllantirish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar kompaniyalari tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga investitsiyalar kiritishda milliy valyutaning qadrsizlanish sur'ati hisobga olinadi. Xususan, milliy valyutada yozilgan qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishda milliy valyutaning qadrsizlanish sur'ati albatta inobatga olinadi. Buning sababi shundaki, milliy valyutaning qadrsizlanish sur'ati yuqori bo'lsa, u holda, milliy valyutada yozilgan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning real qiymati keskin pasayishi va, hatto, umuman yo'qoliishi mumkin.

SHuningdek, milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atining yuqori bo'lishi xorijlik investorlar bilan tashkil etilgan qo'shma korxonalarning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xorijlik hamkor foydasini va dividendini milliy valyutada oladi va ularni xorijiy valyutalarga konvertatsiya qilib, keyin o'zining mamlakatiga repatriatsiya qiladi. Bunday sharoitda milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atining yuqori bo'lishi xorijlik hamkor oladigan foyda va dividendning xorijiy valyutadagi ekvivalentini kamayib borishiga olib keladi. Bu esa, albatta, xorijlik hamkorlarning e'tirozlariga sabab bo'ladi.

Milliy valyutaning qadrsizlanishi korxonalar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan tashqi omil hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilish vazifasi barcha

mamlakatlarda Markaziy bank zimmasiga yuklangan (Singapur, Saudiya Arabistoni va Lixtenshteyndan tashqari, chunki, mazkur mamlakatlarda Markaziy bank mavjud emas).

YUqorida bildirilgan fikrlardan xulosa qilish mumkinki, “Pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalari hisobi”ni o‘rganishda qo‘llaniladigan bir nechta metodlarga asoslangan metodikada sof foydani milliy valyutaning qadrsizlanish sur‘atiga bog‘liq ravishda korrektirovka qilish respublikamiz korxonalari uchun ham, xorijlik investorlar uchun ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar

“Pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalari hisobi”ni o‘rganishda bir nechta metodlarni qo‘llash metodikasi bevosita va bilvosita metodlarga asoslangan.

Pul oqimini bevosita metod bo‘yicha hisoblash korxonaning to‘lovga qobilligini baholash hamda pul mablag‘larining kirimi va chiqimi ustidan tezkor nazoratni amalga oshirish imkonini bersa, pul mablag‘larini bilvosita metod bo‘yicha tahlil qilish joriy davrda sof pul oqimini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni hisoblash hamda olingan foyda bilan pul mablag‘lari qoldig‘ining o‘zgarishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi.

Tahlil natijalari ko‘rsatdiki, sof pul mablag‘lari miqdori bilan olingan moliyaviy natijalar miqdori o‘rtasidagi farqning yuzaga kelishi, asosan, moliyaviy natijalarni hisoblash prinsipiga muvofiq shakllanishi, pul mablag‘lari miqdorining o‘zgarishini esa, kassa usuli bilan aniqlanishi bilan izohlanadi.

Bilvosita metodda uch yo‘nalishdagi tuzatishlar qo‘llaniladi:

- operatsiyalar bo‘yicha pul mablag‘lari kirimi va chiqimining hisobiga, daromad va xarajatlarni aks ettirish vaqtlarining mos kelmasligi bilan bog‘liq bo‘lgan, tuzatishlar;
- sof foyda ko‘rsatkichiga bevosita ta‘sir ko‘rsatmaydigan, ammo pul mablag‘larining harakatiga ta‘sir etadigan xo‘jalik operatsiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan tuzatishlar;

– sof foyda miqdoriga bevosita ta'sir ko'rsatadigan, ammo pul mablag'lari harakatiga ta'sir etmaydigan operatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan tuzatishlar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Pul mablag'lari va valyuta operatsiyalari hisobi” mavzusini o'rganish, bir nechta metodlarni qo'llash metodikasi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

– pul mablag'lari va valyuta operatsiyalari hisobining nazariy-huquqiy asoslarini o'rganish natijalari ko'rsatdiki, birinchidan, kompaniyalarning pul oqimi barqarorligini ta'minlashda asosiy e'tibor operatsion pul oqimining barqarorligiga qaratilishi kerak; ikkinchidan, korxonaning joriy likvidligini baholashda pul mablag'larini joylashtirish samaradorligiga e'tiborni qaratish lozim; uchinchidan, pul mablag'lari hisobini yuritishni to'g'ri tashkil etish pul mablag'lari, to'lov, hisob-kitob va kredit muomalalarini o'z vaqtida va to'g'ri amalga oshirish va rasmiylashtirishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi; to'rtinchidan, byudjet tashkilotlarining pul mablag'lariga ularning hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari, kassadagi pul mablag'lari, pul hujjatlari, pul jo'natmalari, vaqtinchalik depozitga qo'yilgan pul mablag'lari kiradi; beshinchidan, pul mablag'lari va valyuta operatsiyalari hisobining me'yoriy-huquqiy asoslari bo'lib, O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida (yangi tahrir)”gi qonuni, “Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015 yil 16 maydagi 12/17-sonli (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 22 iyulda 2687-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) “Yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini amalga oshirish qoidalarini tasdiqlash haqida”gi yo'riqnomasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan Bank boshqaruvining 2013 yil 26 apreldagi 9/1-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida”gi nizom, inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish nomli 19-sonli Buxgalteriya hisobi milliy andozasi hisoblanadi;

– korxonalarda pul mablag‘larining buxgalteriya hisobi kassa operatsiyalari hisobi va naqdsiz pul mablag‘lari hisobidan iborat bo‘lib, kassa operatsiyalari buxgalteriya hisobida 5010 – “Milliy valyutadagi pul mablag‘lari”, 5020 – “Xorijiy valyutadagi pul mablag‘lari” schyotlaridan foydalaniladi;

– korxonalarining hisob-kitob schyotidagi O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi pul mablag‘larining miqdori va harakatini hisobga olish uchun 5110 – “Hisob-kitob schyoti” hisobvarag‘idan, pul mablag‘larini bilan to‘lovlarni akkreditiv bilan amalga oshirishda 5510 – “Akkreditivlar» hisobvarag‘idan foydalaniladi;

– korxonalarda valyuta operatsiyalarining buxgalteriya hisobini yuritishda 5210 – “Mamlakat ichidagi xorijiy valyuta hisobvaraqlari”, 5220 – “Xorijdagi valyuta hisobvaraqlari”, 9540 – “Kurs farqlaridan olingan daromadlar”, 9620 – “Kurs farqlaridan zararlar” hisobvaraqlaridan foydalaniladi;

– pul oqimini bevosita metod bo‘yicha hisoblash korxonaning to‘lovga qobilligini baholash hamda pul mablag‘larining kirimi va chiqimi ustidan tezkor nazoratni amalga oshirish imkonini bersa, pul mablag‘larini bilvosita metod bo‘yicha tahlil qilish joriy davrda sof pul oqimini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni hisoblash hamda olingan foyda bilan pul mablag‘lari qoldig‘ining o‘zgarishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash aniqlash imkonini berishi aniqlandi;

– sof pul mablag‘lari miqdori bilan olingan moliyaviy natijalar miqdori o‘rtasidagi farqning yuzaga kelishi moliyaviy natijalarni hisoblash prinsipiga muvofiq shakllanishi, pul mablag‘lari miqdorining o‘zgarishini esa, kassa usuli bilan aniqlanishi bilan izohlanishi ma’lum bo‘ldi.

Qilingan xulosalar asosida bitiruv malakaviy ishi ob’ekti va predmeti bo‘yicha quyidagi takliflar berildi:

1. O‘zbekiston Respublikasi korxonalari o‘rtasida debitor-kreditor qarzdorlik muammosining mavjudligi tufayli debitor qarzdorlikning korxonalarining pul oqimi barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligini hisobga olgan holda bir nechta metodlarga asoslangan metodikada korxonaning debitor qarzdorligini aylanish ko‘rsatkichini kiritish lozim.

2. “Pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalari hisobi” mavzusini o‘rganishda bir nechta metodlarni qo‘llash metodikasiga valyuta operatsiyalari buyicha realizatsiya qilinmagan foyda va zararlarni aniqlashni kiritish zarur.

Fikrimizcha, realizatsiya qilinmagan foyda va zarar uchun alohida balans schyotlari ochilishi va ushbu schyotlar bo‘yicha operatsiyalar to‘g‘ri rasmiylashtirilishi lozim.

3. Milliy valyuta-so‘mning qadrsizlanish sur‘atining nisbatan yuqori ekanligi sababli korxonalar sof foydasini milliy valyutaning qadrsizlanish sur‘atiga korrektirovka qilishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

O‘ylaymizki, ushbu takliflar xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning “Pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalari hisobi” mavzusini o‘rganishni takomillashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni. 2016 yil 13 aprel (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni. 200 yil 26 may (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
3. O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"i qonuni. 2003 yil 11 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 martdagi PQ-2836-sonli "Investitsiya loyihalarining loyiha oldi hujjatlarini ishlab chiqish sifatini oshirish to'g'risida"gi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 fevraldagi PQ-2777-sonli "Pul muomaldasini yanada takomillashtirish va bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitoblarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 26 dekabrda PQ-2698-sonli "2017-2019 yillarda tayyor mahsulot turlari, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning istiqbolli loyihalarini amalga oshirishni davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2013 yil 26 apreldagi 9/1-sonli (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 3 iyunda 2465-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori.
9. "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2013. - №23.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma‘ruzalari

10. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o‘shish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. - 64 b.

11. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015. – 72 b.

12. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

3. Darslik va o‘quv adabiyotlari

13. Бригхэм Ю.Ф., Эрхардт. М. С. Финансовый менеджмент. Пер с англ. – СПб.: Питер, 2009. – 960с.

14. Банковское дело. Учебник. Под. ред. Лаврушина О.И. – М.: КНОРУС, 2016. – 800с.

15. Ван Хорн Дж., Вахович М. Основы финансового менеджмента. Пер с англ. – М.: ООО «И.Д.Вильямс», 2011. – 1232с.

16. Karimov A.A. va boshq. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – Toshkent: Sharq, 2004. – 592 b.

17. Mehmonov S.N., Ubaydullaev D.Y. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi. – Toshkent: “Sano-standart”, 2013. – 456 b.

18. Pardaev A. X., Pardaev B.X. Boshqaruv hisobi. – Toshkent: Fan, 2008. – 252 s.

19. Палий В.Ф. Международные стандарты финансовой отчетности. – М.: ИНФРА-М, 2003. – 454 с.

20. Стражев В.И. Оперативное управление предприятием. Проблемы учета и анализа. – Минск: Наука и техника, 1973. – 152 с.

21. Савчук В.П. Управление финансами предприятия. Монография. – М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2011. – С. 178-179.

22. Hoshimov B. Buxgalteriya hisobi. – Toshkent: YOshlar matbuoti, 2004. – 279 b.

23. Ismailov J.G. “O‘zbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasining moliyaviy barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari. I.f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2012. – 21 b.

24. Karimov A.A. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2011. – 29 b.

25. To‘ychiev A.J. Majburiyatlar buxgalteriya hisobi va tahlilining nazariy-metodologik muammolar. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2011. – 32 b.

26. Qurbanov Z.N. Soliq hisobi va auditining nazariy va metodologik asoslari. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2011. – 29 b.

4. Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar)

27. Masharipov O. Auditorlik tashkiloti faoliyatining reyting bahosi uslubiyoti//Moliya. – Toshkent, 2014. - №4. – B. 37-41.

28. Соколов М. Амортизационная политика и диверсификация экономики//Экономист. – Москва, 2011. - №11. – С. 21-24.

29. To‘raev A., Qalandarov G. O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etilishi//Moliya. –Toshkent, 2015. – №4. – B.21-28.

30. Hamdamov B., ostonokulov A. Inqiroz sharoitida buxgalteriya hisobi//Moliya. – Toshkent, 2016. – №3. – B. 34-39.

31. Xusanova N. Naqd pul mablag‘laridan oqilona foydalanishda pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot auditini takomillashtirish yo‘nalishlari//Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash, investitsion faolligi va moliyaviy barqarorligini oshirishning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2016. – B. 440-442.

32. Komolov J. Korxonalarda ishlab chiqarish menejmentining samaradorlik omillari va uni baholash//Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash,

investitsion faolligi va molyaiviy barqarorligini oshirishning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2016. – B. 431-432.

33. Shog'iyosov T.SH., Tal'atov Sh.E. Sotishdan ko'rilgan foyda tahlilining muammolari//Moliya-bank tizimini modernizatsiyalashning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2015. – B. 578-582.

34. Israpilov J.M. Valyuta muomalalari auditi bo'yicha ichki nazorat//Moliya-bank tizimini modernizatsiyalashning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2015. – B. 603-605.

35. Djumanov S. Moliyaviy investitsiyalar qiymatini buxgalteriya hisobida baholash usullari//Korporativ moliyani boqsharishning zamoanviy usullari: qo'llanilish va rivojlantirshi masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2016. – B. 321-322.

36. Xodjaeva M., Yusubova A. Moliyaviy hisobot auditining me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish//Korporativ moliyani boqsharishning zamonaviy usullari: qo'llanilish va rivojlantirshi masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2016. – B. 264-267.

5. Internet saytlari

37. <http://www.imf.org> – Xalqaro valyuta fondi

38. publications@bis.org – Xalqaro hisob-kitoblar banki

39. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki

40. <http://mineconomy.uz>. – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi